

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

O‘zbek tili yo‘nalishi
15.43-guruh bitiruvchisi MAXMUDOVA MA’RIFAT ISMOILJON
qizining
**“O‘zbek tilida allegorik ma’no ifodalashning leksik
vositalari”**
mavzusidagi

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori,
proffessor. A.Mamajonov

Farg`ona- 2019

MUNDARIJA

KIRISH.	3
----------------------	----------

I.BOB Leksik vositalarning allegorik ma'noda qo'llanishi

I.1. Allegoriya va uning ifodalanishi.....	7
I.2. Allegorik ma'noda qo'llanuvchi leksik vositalar.....	22

II.BOB. Allegorik vositalarning nutq uslublarida qo'llanishi

2.1 Allegorik vositalarning so`zlashuv uslubida qo'llanilishi.....	35
2.2 Badiiy nutq uslubida qo'llanilishi.....	49
XULOSA	57
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	59

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zining “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz” asarida ta’kidlaganidek, “.... eng avvalo, mamlakatimiz tuman va shaharlari hokimlari uchun malakali kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratish zarur.”¹ va albatta Birinchi Prezidentimiz ta’kidlganidek, “Endilikda ilm-fan yangi yo‘l ochishi, sifat jihatidan yangi texnologiyalarni jadallik bilan yaratishi, jamiyatning yangi holatga o‘tishini ta’minlashimiz lozim”, shuningdek “... fan ijtimoiy jarayonlarga faol ta’sir etadigan, bizga ya’ni, amaliyot xodimlariga ishimiz mazmuni va xarakterini belgilab beradigan, o‘zini-o‘zi sozlab turadigan va o‘zini-o‘zi boshqaradigan sistemaga aylanishi kerak”²

Bu fikrlar o‘zbek tilshunosligi faniga ham taallulidir. Tilshunoslik sohasida ham zamon talablariga javob beradigan yetuk tadqiqotlar yaratish hozirgi kunning muhim vazifalaridan biridir. Zero, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi.

“Insonni, uning ma’naviy olamini kash etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa, so‘z san’ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari debta’riflanishi bejiz emas”³

So‘zning san’atkorona qo‘llanilishini o‘rganish faqat adabiyotshunoslik emas, balki zamonaviy tilshunoslikning ham vazifasi

¹ Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016, 27-bet

² Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida, - T.: O‘zbekiston, 2011,78-bet.

³ “Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. Б-136.

hisoblanadi. Til sistemasida leksik sathning tutgan o‘rnini belgilash, leksemalarning pragmatik xususiyatlarini ochib berish, nutqdagi uslubiy qo‘llanilishini, ma’no jilolarini tadqiq etish bugungi kunda o‘zbek tilshunoslarining oldida turgan dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

Bitiruv - malakaviy ishimiz mavzusi bo‘lgan o‘zbek tilida allegorik vositalar ham aslida narsa-predmet, voqe-a-hodisalarni qayta nomlash, nominativ funksiya natijasi bo‘lib, bir predmet belgisi boshqa predmetga shartli ravishda ko‘chiriladi, bunda albatta so‘zlovchining salbiy-ijobiy uslubiy bahosi, jamiyatda tutgan o‘rni, ijtimoiy mavqei, yoshi, nutqiy vaziyat asosiy o‘rin tutadi. Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliliginini, ekspressivligini kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko‘chirish yoki ko‘chma ma’noda ishlatilishi trop deyiladi.

Lug‘at tarkibida o‘z o‘rniga ega bo‘lmagan yakka nutqqa xos va o‘sha nutq doirasida ma’lum uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘zlar borki, ular hamisha ta’sirchanligi, betakrorligi, g‘ayritabiyligi bilan ajralib turadi. Bunday so‘z qo‘llashni xalq va so‘z ijodkorlari yaratadi. Voqe-a-hodisa yoki predmetning mavhum yushunchasi o‘rnida qo‘llaniladigan konkret tasvirni ifodalovchi rasmiy so‘z, obrazli tasvir allegoriya deb nomlanib, tildagi imkoniyatlar nutq egasini qanoatlantira olmaganda yaratiladi. Allegoriyada uslubiy bahoning ustunligi, o‘ta ta’sirchanligi, obraz yaratishda nihoyatda qulayligi bilan til birliklarida farqlanadi. Allegorik so‘zlarning o‘ziga xos uslubiy jihatlari, xususiyatlari mavjudki, ular o‘zbek tilshuno sligida hali yetarli ravishda tadqiq etilmagan. Ayniqsa, allegoriyaning paydo bo‘lish sabablari, unga bo‘lgan ehtiyoj allegoriyaga yondosh bo‘lgan hodisalar –

metafora, kinoya, metonimiyalardan farqi, uning uslubiy, badiiy-estetik vazifalari to‘liq o‘rganilmagan. Bu esa mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Allegorik vositalar so‘zning leksik ma’no mundarijasi, ma’no taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lib, ma’lum omillar ta’sirida o‘zgaradi. So‘zning allegorik ma’no ifodalashi, ya’ni konnotativ ma’no ikki xil omil natijasida vujudga keladi.

1. Ekstralinguistik omillar – ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ong va tafakkur rivoji.
2. Lisoniy (lingvistik) omillar – nutqiy-prosodik elementlar (ohang, urg‘u), so‘z ma’nosining sifat o‘zgarishi.

Konteks talabi bilan ko‘chma, majoziy ideomatik ma’noni vujudga keltiradi. Rus va o‘bek tilshunosligida allegorik vositalar haqida fikrlar bayon etilgan. N.I. Fel’dman, E. Xanpira, V.V.Lopatin, X.Abdurahmonov, A.Mamajonov, A.Mamatov, G.Kobuljonovalar allegoriyaning metaforik ko‘chimdan farqli jihatlarini bayon qilgan. Biz esa ko‘roq etiborimizni badiiy va so‘zlashuv nutqidagi allegorik vositalarni o‘rganishga va ularning semantikasi va badiiy-uslubiy vazifalarini yoritishga e’tiborni qaratamiz.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. O‘zbek tilshunosligida allegoriyaning qo‘llanilishiga doir maxsus tadqiqotlar yaratish muhim ahamiyatga egadir. Allegoriyaning nutqda ishlatalishi so‘zning ta’sir kuchini oshirishi, uning metafora, metonimiyadan farqli tomonlari mavjud ekanligini, nutq uslublarida qo‘llanishini o‘rganish tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- ❖ Hozirgi allegoriyaning paydo bo‘lishi masal janridan shakllangani;

- ❖ Ayrim maqollarda ifodalangan qushlar, hayvonlar, o'simliklar allegoriyani vujudga keltirishi;
- ❖ Allegorik ma'no ifodalovchi lisoniy vositalarning nutq uslublarida qo'llanilishi kabi o'z oldimizga belgilab qo'yilgan asosiy vazifalar hisoblanadi.

Tadqiqotning ob'ekti va predmeti. Tadqiqotimizning ob'ekti sifatida asosan xalq og'zaki ijodi bo'lgan: ertaklardan, maqollardan, masallardan va ijodkorlarning asarlaridan misollar yig'ildi. O'zbek tilida mavjud bo'lgan allegoriyalar va ijodkorlar she'rlarida qo'llagan allegoriyalar tadqiqotimizning predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. O'zbek tilshunosligida X.Abdurahmonov, A.Mamajonov, A.Mamatov, G.Kobuljonovalar kabi olimlar allegoriyaning metaforik ko'chimdan farqli tomonlarini keng o'rganganlar.

BMIning tuzilishi va hajmi. Bitiruv-malakaviy ishi kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlardan tashqari, ikki asosiy bobdan iborat. Har bir bob ikki faslni o'z ichiga oladi. Ishning umumiyligi 60 sahifani tashkil etadi.

I.BOB Leksik vositalarning allegorik ma'noda qo'llanilishi

1.1. Allegoriya va uning ifodalanishi

Til barcha uchun umumiy bo'lib, mohiyat va imkoniyat tarzida jamiyat a'zolari ongida yashaydi, har bir inson esa o'z nutqini ma'lum meyor asosida, imkoniyati darajasida voqealantiradi. Bu voqelik og'zaki va yozma shaklda taraqqiy etayotgan badiiy adabiyotda ham kuzatiladi.

Odatda she'riy nutqni boyishda, unda yangi mazmunni ifodalovchi yangi so'z yoxud so'z birikmasini yaratishda, shoirning tasvir ob'ektiga munosabatini ifodalashda ko'chimlar katta imkoniyat yaratadi. Shoir ko'chimlar vositasida tasvir ob'ektini individuallashtiradi va uni yanada aniqroq-yorqinroq ochadi: kitobxon u haqda obrazli tasavurga ega bo'ladi⁴.

Ko`chimlarning bir qismi allaqachon til hodisasiga aylanib ulgurgan. Masalan, "kun botdi", "soat yuryapti" kabi birikmalarda so`z ma'nosи ko`chganligi aniq, biroq biz ularga shu darajada ko`nikib ketganmizki, hozirda ularga ko`chim sifatida qaramaymiz ham. Badiiy asar matnida mazkur ko`chimlar qo'llanganida, tabiiyki, muallif muayyan badiiy-estetik maqsad bilan semantik sathda og`ishga yo`l qo`ygan deya olmaymiz, zero, ular yozuvchi tomonidan (umumxalq tili bazasidan) tayyor holda olingan. Balki, bu xil ko`chimlar matnda estetik funksiya bajarmaydi, ularni badiiyat hodisasi sifatida talqin qilib bo`lmaydi⁵.

Ikki predmet yoki hodisani chog'ishtirish, o'xshatish troplarga asos qilib olinadi. Ya'ni predmet yoki voqea-hodisa haqida aniq, yorqin tasavvur hosil qilish uchun unga boshqa bir predmet yoki voqea-hodisa haqida aniq,

⁴ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т.: "Ўзбекистон", 2002. 326-б.

⁵ КуроновД. <http://www.quronov.narod.ru/>

yorqin tasavvur hosil qilish uchun boshqa bir predmet yoki voqeanning belgisi ko‘chiriladi, o‘xshatiladi⁶.

“O‘zbek tili stilistikasi”da troplarning *metafora*, *metonimiya*, *sinekdoxa*, *epitet*, *o‘xshatish*, *ironiya*, *antifraza sarkazm*, *perifraz*, *mubolag‘a va litota*, *allegoriya*, *jonlantirish*, *apostrofa* kabi turlari qayd etilgan⁷.

Biz bitiruv - malakaviy ish hajmidan kelib chiqqan holda ushbu vositalardan faqat o‘xshatishga asoslangan turlarini o‘rganishni rejalaشتirdik. O‘xshatish, metafora (yashirin o‘xshatish), jonlantirish (metaforaning bir ko‘rinishi) kabi ko‘chimlarning hammasi ham o‘xshatishga asoslanadi.

Allegoriya (gr. *allos* – boshqa, o‘zga agoreúo – gapiraman so‘zlaridan) – allegoriya, majoz. Badiiy adabiyot va san’atdagi tasviriy usullardan biri bo‘lib, ijodkor majoziy obrazlar asosida asar yaratadi. Majoziy tasvir juda ham qadimiy bo‘lib, ayrim janrlar faqat majoz asosidagina yaratiladi. Masalan ertaklarning maxsus turi va masallar. Majoz lirkada ham keng qo‘llaniladi. Nazmda majoz asarning badiiy qimmatini, ta’sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Masalan. A.Oripovning “Tilla baliqcha” she’ri majoziy tasvir asosida yaratilgan lirk asardir. Ayrim so‘zlar va iboralar majoziy ma’noda qo‘llanadi. Masalan, “Qarg‘a qarg‘anining ko‘zini cho‘qimas” iborasi esa xarakteri, maslagi bir xil kishilar bir-biriga ziyon yetkazmaydi ma’nosida qo‘llaniladi. Qushlar haqidagi maqollar o‘zining qadimiyligi bilan ham ajralib turadi. Masalan, *Qarg‘a qarg‘anining ko‘zini*

⁶ Кўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Т., Фан, 1977. 13-б

⁷ Шомаксудов А. ва б. Ўзбек тили стилистикаси. Т., “Ўқитувчи”, 1983. 236-247-б.

cho‘qimaydi maqoli jahonning ko‘pgina mamlakatlari orasida tarqalgan bo‘lib, insoniyat yaratgan eng qadimiy maqollardan biridir. Uni milodiy V asrdayoq lotin adibi va tilshunosi A.F.Makrobiy o‘z «Grammatikasi»da keltirgan. Maqolning to‘g‘ri ma’nosi shuki, qarg‘a-quzg‘unlar odamning yoki biror hayvonning ochiq yerda qolib ketgan murdasini ko‘rib qolsa, avval uning ko‘zini cho‘qib yerkan-da, keyin go‘shtini yeya boshlar ekan. Ammo tirik qarg‘a va quzg‘un o‘lik qarg‘a va quzg‘unning ko‘zini cho‘qimas ekan. Shu holatni esga soluvchi vaziyatlarda insonlarga nisbatan majoziy ma’noda qo‘llanadi.

“Adabiyotshunoslik lug‘ati”⁸da ta’riflanishicha, allegoriya – mavhum tushuncha yoki hodisani konkret narsa orqali ifodalashga asoslangan ko‘chim turi. Bu holda konkret narsani ifodalovchi so‘z mavhum tushunchani ifodalash uchun ko‘chma ma’noda qo‘llanadi. Masalan, Sh.Rahmonning bir she’rida lirik qahramonning tog‘dagi kechinmalari tasvirlanadi:

*Ammo tog‘dan tushganim sari,
sezar edim badbo‘y islarni,
ko‘rar edim tulki, qashqirlar,
to‘ng‘izlaru ilon izlarin...*

Misralarni shakllantirgan gap presuppozitsiyasida “*tog‘larning musaffo qorlari odam izlarini saqlab qolgan, bu izlar uni tobora yuqoriga olib boradi*” mazmuni o‘z ifodasini topgan.

Keltirilgan parchadagi “*tulki*”, “*qashqir*”, “*to‘ng‘iz*”, “*ilon*” so‘zlari allegoriyalar bo‘lib, ular matnda insonga xos xususiyatlar orqali ma’lum

⁸ Куронов Д. Ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. Т.: “Академнашр”, 2010. 25-6.

toifadagi kishilarni bildiradi, obrazlilik tipi. Hayvon tushunchali ushbu leksik birliklar semasida “shaxs” semasining reallashuvi tilshunoslikning tadqiqot ob’ekti hisoblanadi. Obrazlilik tipi sifatida esa bu birliklar adabiyotshunoslikning o’rganish ob’ektiga aylanadi.

Hamma vaqt allegoriyaning ifoda plani bilan mazmun plani bir-biriga mos kelmaydi. Ya’ni allegoriya vositasida tasvirlanayotgan narsa atash ma’nosini emas, ifoda ma’nosini(muallif ko‘zda tutgan ma’no)ni ifodalaydi. Masalan, Faxriyorning “Qushlar savodxonligi” she’ridan olingan quyidagi parchani tahlil etib ko‘raylik:

Boyo‘g‘li esa

otasi sotgan chaldevorlar puliga

xorijda o‘qib kelgan.

Otasi endi unga

tunni xatlab bergen.

Boyo‘g‘li – tunlar sulton.

Biroq tunda ishlanmaydi. Savod kerak emas.

Shuning uchun ham

uning nima bilishini tusmollab bo‘lmaydi.

Ushbu misralarda “boyo‘g‘li” allegoriya ifodalovchi leksik birlik. Bu o‘rinda u aslo o‘z ma’nosida tushunilmaydi. Buni matndan ham bilish mumkin. Shunisi e’tiborliki, shoir boyo‘g‘li so‘ziga yangicha ma’no yuklaydi, uning vositasida iqtisodiy islohotlar jarayonida ustomonlik bilan ortirilgan behisob davlat (otasi sotgan chaldevorlar) hisobiga barcha imkonlardan foydalanib qolgan (xorijda o‘qib kelgan), endilikda tungi kafelarda ayshini surayotgan “boy o‘g‘ilari” tasvirlanadi.

Allegorik obrazlarning bir qismi milliy madaniyat kontekstida ko‘p takrorlanganidan turg‘un ma’noga ega bo‘lganki, bu jihatni bilan ular ramzga yaqinlashadi. Masalan, milliy adabiy an’analarimizga ko’ra, Hotami Toyda – saxiylik, Rustamda – jasurlik, Iso Masihda – jon bag’ishlash, Yusufda – go’zallik, Maryamda-bokiralik, Namrudda kibr va h.k. ma’nolar muqimlashgan. Allegorik obrazlarning boshqa bir qismi esa ko’zda tutilgan ma’noga ishora qilinishini taqazo etadi (masallarda “qissadan hissa” kabi). Ayni shu ishoraning mavjudligi allegoriyani ramz (simvol) dan farqlovchi muhim jihatdir. Masalan, A.Oripovning “Tilla baliqcha” she’ri nihoyasidagi

“Menga alam qilar tilla baliqcha.

Bir ko’lmak hovuz deb bilar dunyoni” satrlari ko’zda tutilgan ma’noga ochiq ishora bo’lib, obrazning allegorikligini belgilaydi. Agar shu ishora bo’lmay, avvalgi satrlardagi tasvir bilan cheklanilganda, obrazning tasvir va ifoda planlarining har biri o’z holicha mustaqil bo’lardiki, bu holda obraz ramziy (simvollik) sanalar edi. Vaholanki, bu o’rinda allegorik ma’no hisobiga timsol yaratilmoqda.

Ayrim adabiyotlarda allegoriya simvolikaning bir ko‘rinishi sifatida ham baholanadi va voqeal-hodisa yoki predmetning mavhum tushunchasi o‘rnida qo’llaniladigan konkret tasvirni ifodalovchi ramziy so‘zga tenglashtiriladi, shuningdek, komparativ(o‘xshash) ko‘chimlar sirasiga kiritiladi. Agar shunday bo’lsa, yuqorida qayd etilganidek, allegoriya metonimiyyaga asoslangan emas, metafora asoslangan ko‘chim hisoblanadi. Bu o’rinda biroz yanglishlik bordek. Chunki ko‘plab adabiyotlarda qayd etilganidek, allegoriya vositasilari tasvirlangan biror predmetga xos xussusiyat asos predmet xususiyati bilan o‘xshash emas, balki bog‘likdir.

Allegoriya – leksemaning ma’no taraqqiyotidagi o‘zgarish sanalib, u salbiy sub’ektiv bahoni yuzaga chiqaruvchi ko‘chim turi hisoblanadi. Allegoriya asosan salbiy baholi metaforik ko‘chimdir. U ekspressiv-emotsionalligi yuqori bo‘lgan jonlantirish. Bu atama izohi keltirilgan “Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati”da quyidagi izoh berilgan.: “Allegoriya (lot. – kinoya, kesatiq, piching so‘zidan) – biror mavhum tushunchani konkret narsa yoki hodisa orqali (“qizim senga aytaman, kelininm o‘zing eshit” qabilida) ifodalagan majoziy, ya’ni o‘z ma’nosidan boshqa ma’noga ko‘chirilgan so‘z va iboralarning bir turi. Kinoyada mavhum tushunchani konkret narsa yoki hodisaga xos belgilar yordami bilan aniq tasavvur etish ko‘zda tutiladi”. Masalan

“Tangriqulxo ‘ja ilonning yog ‘ini yalagan odam edi-da. Yoki Siddiqjon bilan so ‘zlashib turganini bilsa ham terisiga somon tiqadi.
Bu xususda otasining qamchisidan qon tomar edi.”

(A.Qahhaor “Qo‘sheinor chiroqlari”)

U parchadagi “ilonning yog ‘ini yalagan” gapi uni uradi degan fikrni “qamchisida qon tomadi” gapi esa qattiqqo‘l, zolim kishi edi, degan tushunchani konkret tasavvur etishga yordam beradi. Odayda masal va ertaklar va ertaklarda tulki aldoqchi kishilarga, bo‘ri ochko‘zga, chayon zararli, ilon makkor, to‘ti gapdon, bulbul g‘azalxon va ashullachi odamlarga nisbatan kinoya qilinadi.

Ko‘rinadiki allegoriya leksik birlik sifatida so‘zning ma’no taraqqiyoti, ma’no ko‘chishi bilan bog‘liq hisoblanadi.

Kommunikativ ehtiyoj, badiiy matn talabiga ko‘ra vujudga kelgan allegorik lisoniy vositalarda aksariyat hayvon nomlari qo‘llaniladi. Biroq

ayrim hayvonlar mamlakatimiz hududida uchramaydi, ya’ni bazi jonzotlar tulki, bo‘ri, xo‘roz kabilar xalqning e’tiqodiy qarashlari natijasida turlicha o‘rinlarda qo‘llanilgan. Bu esa nutqning paydo bo‘lishi kishilik jamiyat belgilagan me’yor (forma)ga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Me’yor ijtimoiy jamiyat tomonidan belgilanga, aniqlangan qonuniyatlar va imkoniyatlar tushunchasi bo‘lib, turli vaziyatlarda shaxs nomini hayvon nomlari bialn atash yoki yoki yovuz kuch, g‘ayritabiiy narsalarning nomini aytmasdan, it zoonimi orqali ifodalash aynan o‘sha meyorning amoyon bo‘lishi hisoblanadi. Til-me’yor-nutq uzviy aloqadagi jarayon bo‘lib, til birliklarining nutqdagi voqealanishi uchu me’yor, tartib-qoida, ko‘rsatma hisoblanadi. Shuningdek, til va nutq birliklari o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra ajratib o‘rganiladi, xususan til birligi bo‘lgan leksemaning atash (denotativ ma’no), ifodalash (kohhotativ ma’no), vazifa (funksional) semalari mavjud bo‘lib, ular nutqda namoyon bo‘ladi, ya’ni so‘zning ma’no taraqqiyotida o‘g‘zgarish yuz beradi. Bu o‘zgarish iki xil tarzda yuz beradi.

1.So‘zning semantik tarkibidagi ma’nolar ko‘payadi, miqdor o‘g‘arishi yuz beradi.

2.So‘zning semantik tarkibidagi ma’no hajmi o‘zgaradi.

Bunda ma’nolar miqdori ortmaydi, bitta ma’nonng hajmi ko‘لامi kengayadi yoki torayadi, xolos.

Allegoriya birinchi guruhga mansub bo‘lib, miqdor o‘zgarishi natijasida sifat o‘zgarishi yuz beradi, ma’no ko‘chirilishida ko‘proq polisemianing yuzaga kelishi bialn izohlanadi. Demak, allegoriya leksemaning semantik tarkibida leksik ma’nolar miqdorining ko‘ayishi natijasida vujudga keladi. So‘zning semantik tarkibidagi leksik ma’nolar

dastlab ikki guruhga: a) hozirgi leksik ma'nolarga va b) avvalgi leksik ma'nolarga ajratiladi. Hozirg leksik ma'no til taraqqiyotining hozirgi bosqichiga, avvalgi leksik ma'no esa tarixiy (dioxron) semasiologiyada o'rganiladi. Hozirgi leksik ma'nolar o'z navbatida bosh ma'no va hosila ma'no tiplarida bo'linadi, ular konteks talabiga ko'ra to'g'ri va ko'chma ma'no, nominative (nomlovchi) ma'no va majoziy ma'no, erkin ma'no va bog'li (bog'langan) ma'no nomlari bian ham ataladi. Allegoriya ana shu bosh va hosila ma'no munosabati tizimiga asoslanadi. Masaln, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da tulki so'zining ma'no mundarijasi berilgan, unda bu so'zning bosh ma'nosи "itlar turkumiga mansub yirtqich sut emizuvchi hayvondir"⁹ deb so'zning semantik tarkibidagi bosh ma'noni o'sib chiqishi uchun asos bo'lgan ma'no beriladi. Bu tulki so'zining to'g'ri ma'nosи (voqelikni, predmetni nomlagani uchun), erkin ma'no (reallashuvi ma'lum kontekst, so'z qurshovi bilan cheklanmaganligi uchun) sanaldi. Hosila ma'no bosh ma'nodan taraqqiy etgan ma'nodir. Masalan tulki so'zining hosila ma'nosи "O'taketgan ayyor, makkor odam"dir. Bu ma'no ayrim kishilarning xatti-harkatini tulkinining hiylakorligiga o'xshatish, nisbatlash orqali yuzaga keltiradi. Haqiqatda esa tulkilar uni laqqillatadilar. So'zning hosila ma'nosи konteks talabidan kelib chiqib, ko'chma ma'no (so'zning to'g'ri ma'noda ifodalangan narsa-hodisalardan boshqa narsalarga nom bo'lib ko'chganligi uchun), majoziy ma'no (mavhum tushuncha yoki go'yalarни aniq obraz orqali ifodalashga xizmat qilaganligi uchun), bog'li ma'no (reallashuvi ma'lum contest, so'z qurshovi bilan cheklanganligi uchun) degan nomlar bilan ham ataladi. Hayvonlarning bosh, arash semalari

⁹ Ўзтек тилининг изоҳли лугати.-Т. Ўзбекистон миллый ёнсиқлопедияси. 2007. 4-жилд 69-бет.

ularning umumiy belgisini – sut emizuvchi yoki hashoratlar ekanligini angatsa, ifoda semalari esa zoonimlarning ijobiy yoki salbiy subyektiv baho ma’nosida qo’llanilishiga bog‘liq bo‘ladi. Leksemaning funksional semasi esa aynan matndagi vazifasini namoyon etadi. Adabiyotlarda bo‘ri semasi ‘hayvon’, ‘sutemizuvchi’, ‘yovvoyi’, ‘yirtqich hayvon’ kabi atash semalari bilan birga ‘qoxo‘r’, ‘rahmsiz’, ‘o‘z manfaatidan boshqa narsani ko‘zlamaydigan’ kabi semalarga ham ega¹⁰, deb ta’kidlanadi.

Allegorik vositaning leksik ma’no jihatidan yana bir muhim jihat shundaki, u leksemaning til sistemasidagi boshqa so‘zlar bilan turli darajada aloqaga kirisha olish imkoniyatini ham belgilaydi. Allegorik ma’no so‘zning dastlabki bosh va atash ma’nosi bilan aloqada bo‘ladi. Chunki borliqdagi narsa-hodisalar sezgi a’zolarimiz orqali ongimizga ta’sir ko‘rsatadi, natijada inson ongida shu narsa-hodisalarning in’ikosi obrazi qoladi, unda nom tarzida biriktirilgan so‘zning shakli ham ongimizda o‘z aksini topadi. Shunday qilib, bu ikki hodisa – predmet in’ikosi va so‘z shakli obrazi o‘rtasida doimiy, mustahkam aloqa bog‘lanib, bir butun yaxlitlik yuzaga keladi: har safar narsa hodisani ko‘rganda yoki sezganda ongimizda shu narsaning in’ikosi bilan birga, uning nomi bo‘lgan so‘zning qiyofasi ham gavdalanadi yoki, ayniqsa, so‘zni eshitganda shu so‘z qiyofasi bialn birga u atagan narsa-hodisaning in’ikosi obrazi tiklanadi. Ana shu hodisa o‘rtasidagi doimiy aloqa, bog‘lanish leksik ma’no bo‘ladi. So‘z va uning ma’nosi birgalikda inson ongida tushunchani shakllantiradi. Demak, so‘zni tushunchanining tildagi belgisi deyish mumkin.

¹⁰ НЕЙМАТОВ Х., РАСУЛОВ Р. ЎЗБЕК СИСТЕМ ЛЕКСИКОЛОГИЯ АСОСЛАРИ. ТОШКЕНТ.: ЎКИТУВЧИ. 1995. Б-60

Allegorik asarlarda hayotiy obrazlarning konkret belgilari va xususiyatlari yozuvchi ifodalamoqchi bo‘lgan ko‘chma ma’nodgi tushuncha va hodisaning asosiy xususiyatlariga muvofiq bo‘ladi. Obrazlarning kinoyaviy xarakterda bo‘lishi, asosan, masal janriga xos xususiyatdir. Muhammadsharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida Yapaloqqush, Boyo‘g‘li, Gunashbonu , Kulokirsulton, Ko‘rqush, Hudhud, Tuch, bo‘taloq Kuykunak, Toshbaqa, Chayon, Maymun, Kordon, Turumtoy, Bozanda, Navozanda, Tulki, qush va shunga o‘xhash jonivorlar obrazlari berilganki, bular to‘la ma’nodagi allegorik obrazlardir. Hayvon, qush, parranda kabilargina emas, hatto buyumlar, predmetlar, hodisalar ham allegoriya qilinishi mumkin. Masalan, Sami Abduqahhorning “Daryo va jilg‘a” masalani ko‘rishimiz mumkin:

*Birdan sharros quydi bahor jalasi,
Bo ‘g‘otga berkindi chumchuq galasi.
Dam o ‘tmay qirdan ko ‘pirib, toshib,
Shiddati zo ‘r, kerilib, oshib,
Tushib keldi kichik bir jilg‘a
O ‘zi ancha sayoz, serko ‘pik, loyqa...
Vodiydan o ‘tardi Daryoi – azim,
Vazmin oqishida salobat, viqor.
Ko ‘rdiki, yonidan kichik suv oqar.*

Dedi:

– *Bizga birlashmoq lozim!*
Birlashib vodiya hayot eltamiz,
Nur bo ‘lur shu elga har bir qatramiz...

Nahot yakka qolsang?!

Qara bo ‘yimg‘a!

– *Qo ‘shilmoqni keltirmayman o ‘yimga!*

Nima qildim senga qo ‘shilib,

Yaxshi emasmi o ‘zim oqsam jo ‘sh urib?

Istasam har tomon suza olaman,

Istasam g ‘ovlarni ham buza olaman.

Qudratimga o ‘zing ham tan ber-da andak;

O ‘zboshimcha ketaberdi...

Tunu kun yurdi.

Duch kelib ertasi Jilg‘a ko ‘lmakka,

Singib ketdi butkul tuproqqa...

Ko‘rinib turibdiki, mazkur masalda Jilg‘a va Daryoi azimlar allegoriya sanaladi. Negaki ular insoniylashtirilgan: ular odamlardek o‘zaro bahslashadilar, talashib-tortishadilar. Jilg‘a – manmanlikka berilgan, o‘zboshimcha, maqtanchoq odamlar timsoli bo‘lsa, Daryoi azim salobtli, bosiq, kuch birlikda deb biluvchi kishilar ramzi. Umuman, masalda “Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar” maqolining ruhi ufurib turibdi. Masalga yuzaki qaraganda, tabiat hodisasi – daryo va jilg‘a haqida fikr yuritilayotganga o‘xshaydi-yu, aslida juda muhim ijtimoiy hodisa – odamlarni birlashishga da’vat etish masalasi ko‘tarib chiqilgan. Ana shu maqsadga erishi uchun ijodkor allegoriya vositasidan juda o‘rinli foydalangan.

Allegoriya adabiyotshunoslikda majoz nomi bilan ham yuritiladi.

Majoz (ar.-ko‘chma ma’nodagi so‘z)-1) mumtoz adabiyotshunoslikda so‘zni o‘z ma’nosida emas, boshqa bir ko‘chma ma’noda ishlatish, ko‘chimning umumiy nomi; trop.

Atoulloh Husayniy majozga “... lafzni o‘z yasog‘idin o‘zga ma’noda yasog‘u lafzu o‘shul ma’no orasindag‘i biror aloqa-yu munosabatga asoslanaroq qo‘llamoqtin iboratdur, o‘z yasrg‘ida tushunmakka moni bo‘lg‘uchi jumladoshin kelturmak sharti bila”, deya ta’rif beradi. Ya’ni so‘zning ko‘chma ma’nosni doim matn ichida, u bog‘lanib kelayotgan boshqa (o‘z yasog‘ida tushunmakka moni bo‘lg‘uchi jumladosh) so‘z orqali anglashiladi. So‘zning matndan tashqarida anglatgan ma’nosni esa o‘z ma’nosni hisoblanadi. So‘zning ko‘chma ma’noda ishlatilishiga uning o‘z ma’nosni bilan ko‘chma ma’nosni o‘rtasida biror bog‘liqlik, o‘xshashlik yoki aloqadorlik bo‘lishi shart qilib qo‘yiladi. Hozirda majoz atamasini bu ma’noda qo‘llash passivlashgan; hozirgi adabiyotshunoslikda, qolaversa, tilshunosdikda ham majoz atamasini ko‘chim turlaridan biri, ya’ni allegoriya sifatida qo‘llash kengroq ommalashgan.

So‘zlarning majoziy xarakterga ega bo‘lishi metonimiya asosida yuzaga keladi. Metonimiya so‘zlarning ko‘chma ma’nosiga asoslanadigan ko‘chim (trop) ning asosiy turlaridan biri: ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asoslangan o‘xshashsiz ko‘chim. Metonimiyada biror narsa yoki voqeahodisaning nomi boshqasiga ko‘chiriladi, u boshqa nom bilan ifodalanadi, biroq bu nomlash predmet yoki narsalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka emas, balki ular o‘rtasidagi yaqinlikka, aloqadorlikka asoslanadi. Mana shu jihat bilan metonimiya istioralardan farq qiladi. Chunki istioralarda bir-biriga o‘xshash predmet va ularning belgilari ko‘chirilsa, metonimiyada tashqi

ko‘rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga aloqador bo‘lgan, lekin bir-biriga o‘xshamagan predmet belgilari chog‘ishtiriladi.

Bir predmetning, belgining, harakatning nomi boshqasiga o‘xhashlik asosida emas, balki o‘zaro bog‘liqlik asosida ko‘chirilishi metonimiya yo‘li bilan ko‘chirish deyiladi. (metonimiya – yun. metonimia, `qayta nomlash` demakdir). Masalan, *dasturxon* leksemasi ovqatlanish uchun yoziladigan buyumni anglatadi: bu leksema bilan ovqatning o‘zi – dasturxonga qo‘yiladigan noz-ne’mat ham tushuniladi.

Badiiy adabiyotda metaforik tafakkur yetakchilik qilayotgan zamonaviy adabiyotda metonimiya metaforaga nisbatan kam uchraydi, zero estetik funksiyadorligi jihatidan u metaforadan quyiroq turadi. Shunday bo‘lsa-da, badiiy matnda metafora bilan yondosh qo‘llangan holda u katta badiiy samara beradi, fikrni lo‘nda, ta’sirli ifodalashga xizmat qiladi.

Masalan, A. Oripovning “*Faryod chekkanim yo‘q el ichra taqir, O‘ch ham olganim yo‘q na qalamimdan*” satrlari orqali vosita orqali jarayon nazarda tutiladi va “*o‘ch olmoq*” metaforasi bilan birga qo‘llanadi. Bu ikkisi birlikda “butun vujudim bilan ijodga berilib, g‘amlarimni unutishga harakat qilmadim”, degan ma’noni ifodalaydi¹¹. Muhimi shuki, misralar mazmunini obrazli, ta’sirli ifodalashga xizmat qiladi.

U.Azimning: “*Ko‘zlarini ochib-yumar Mitti qushcha – yarador.Falak, unga najot yubor, O‘lim, bo‘lma xaridor*”, - misralarida joy metonimiyasi qo‘llangan: “*falak*” so‘zi tafakkurimizdan joy olgan assotsiatsiyalar asosida “*yaratgan*”ni anglatadi.

¹¹ Куронов Д. Ва бошқалар. Адабиётшунослик лугати. Т.: “Академнашр”, 2010. 172-б.

Muhammad Yusufning “Yor-yor” she’rida qarg‘alar so‘zi go‘yo qor yog‘ar birikmasiga qofiya sifatida tanlangandek taassurot qoldiradi. Shunday bo‘lsa-da, bu leksik vosita shoirning muayyan maqsadlari bilan bog‘liq holda matnga kiritilgan bo‘lib, qarg‘alar timsolida lirik qahramonning muhabbat osmonida to‘plangani va kutilajak sovuq kunlarga ishora qilinmoqda:

Osmon olis, osmon jim,

Marhamatda qor yog‘ar.

Seni qanday sevardim,

Ko ‘rolmadi qarg‘alar.

Ba’zi hollarda badiiy matnda metonimiya bilan metafora qorishiq holda voqelanadi. Masalan, Sh.Rahmonning “Lahza” she’rida “xazon” so‘zi orqali ikki ko‘chim o‘z ifodasini topganligini ko‘rish mumkin:

Xazonga aylandi kunlarim...

Motamda turganday boqaman.

Fasllar to ‘qnashgan lahzada

Xazonlar to ‘pini yoqaman.

Ko ‘zlarim achishar behosdan

yuragim, qo ‘llarim titraydi.

Alanga olmaydi kunlarim,

tutaydi, oh, muncha tutaydi. (74)

She’rning lirik qahramoni – kechmishini sarhisob qilayotgan, o‘tgan kunlaridan qoniqmaslik tuyayotgan odam. Shoir o‘tgan kunlarini xazonga mengzaydi, natijada metaforik obraz yaratadi va bu metafora keyingi misradagi o‘xshatish uchun zamin bo‘ladi. *Motamda turganday boqaman.*

Motamda marhumga nisbatan achinish hissi paydo bo‘lganidek, besamar o‘tkazilgan kunlarga ham ana shundek achinish hissi paydo bo‘ladi.

“Shoirning assosiativ tafakkuri “*xazon*” da metonimik asosda kuzni, ayni paytda uning o‘zida metaforik asosda yana o‘tgan, hayot daraxtidan go‘yo uzilib tushgan kunlarini ko‘radi. She’rning kayfiyatini his qilishda, uni tushunishda “*xazon*” so‘zi yetakchi ahamiyat kasb etadi, go‘yo kalit vazifasini bajaradi”¹², motam so‘zini qo‘llashning mantiqiy asosini belgilab beradi. Ayniqsa, “*Alanga olmaydi kunlarim, tutaydi, oh, muncha tutaydi*” sintaktik qurilmasi fe’l metaforaning o‘ziga xos ifodasidir. “*Tutagan, biroq alanga olmaydigan kunlar*” shoirning ezgin hislar og‘ushida qoldiradi. “*Oh*” so‘zida esa shoir armonlari o‘z ifodasini topganday: “*tutaydi, oh muncha tutaydi*”. Metaforik va metonimik ma’noni kuchaytirish uchun ham **oh** so‘zining intonasiyasidan, ham **muncha** orttirma daraja hosil qiluvchi leksik vositadan shoir juda o‘rinli foydalangan. Aytish mumkinki, allegoriya metonimiya asosida ifoda topgan bo‘ladi. Bunday hollarda allegoriyani metafora va ramzlardan farqlash qiyin bo‘ladi.

Allegoriya alohida bir uslubiy vosita sifatida tilimizning yanada boy va jozibali bo‘lishiga xizmat qiladi. Allegorik ma’noda qo‘llanuvchi leksik vositalar asosan ot so‘z turkumi doirasidagina hosil bo‘ladi. Bu uslubiy vositalardan ko‘proq jonli nutq ko‘rinishlarida, xalq og‘zaki ijodi materiallarida foydalilanadi. Natijada nutqning ta’sirchan va effektli bo‘lishiga erishiladi.

¹² Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. Андижон, 2002. 122-6.; <http://www.quronov.narod.ru/>

1.2 Allegorik ma'noda qo'llaniluvchi leksik vositalar

Allegoriya ifodalovchi vositalar rang-barang. Ularning har bir asarda yoki poetik matndagi ifoda imkoniyatlarini bir xil baholab bo'lmaydi. Bu ko'proq badiiy matn ijodkorining tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlariga, tajribasiga bog'liq bo'lib qoladi. Bunday leksik vositalar istalgan matnning majoziy xususiyatlarini belgilab beradi. Alisher Navoiyning mashhur "Lison ut-tayr" asarini o'zbek mumtoz adabiyotining vogelikni majoz timsolida aks ettirgan allegorik vositalarga boy asar sifatida ko'rsatish mumkin. "Lison ut-tayr"dagi har bir qush majoziy xususiyat namoyon etadi, ya'ni allegoriya ifodalovchi vosita hisoblanadi. Jumladan, Xo'roz – dunyoviy shahvat va lazzatni ifodalovchi timsol. U Hudhudga murojaat qilib, shunday deydi: "*Ey qushlarning raisi tojdori, biz ikkovga ham Haq tojni nasib qildi. Lekin bizning vazifamiz boshqa-boshqa. Senga rahbarlik ato etildi. Va qushlarning peshvosiga aylanding*". Bu fikrlarni eshitgan Hudhudda e'tiroz paydo bo'ladi va tanbeh tariqasida Xo'rozga sidra daraxtida yashaydigan bir qush taqdirini so'zlab beradi. Bu qushning "xilvatgohi anjuman" bo'lib, u joyidan jilmasdan sayr etgan. Bu sayrda Arshga parvoz qilsa-da, uni elga zohir qilmagan. U qush bir dam Simurg'dan ajralmaganligi uchun "vasldin ko'ngliga o'zga olam ochilgan"¹³. Hudhudning fikricha, xo'roz bilan sidranishin qush orasida yer bilan osmoncha farq bor.

"Mantiq ut-tayr"da xo'roz timsoli ham, Hudhud tilidan hikoya qilingan voqealari ham uchramaydi. Bu "Lison ut-tayr"ning yangiligidan dalolat beradi¹⁴.

¹³ Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. Илмий-танқидий матн. Тайёрловчи Шарофиддин Эшонхўжаев. Т., 1965. 61-б.

¹⁴ Жумаев Р. "Лисон ут-тайр" даги бир аажозий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. 2011, №4. 24-б.

E.E.Berteles xo‘roz timsolining mifologik asoslari xususida bahs yuritib, Bobo Ko‘hiyning “oftob” radifli bir g‘azalida uchraydigan xo‘roz timsolini shahvatparastlik ramzi sifatida baholaydi¹⁵.

Navoiy tasviridagi xo‘roz ham hirs va shahvatparastlik mayllarini aks ettiradi. Biroq uning yuzaga kelish zamini mifologik tasavvurlarga emas, balki, eng avvalo, Qur’oni Karim va Rumiyning “Masnaviy”siga daxldor.

Qur’oni Karimning “Baqara” surasi 260-oyatida shunday deyiladi:

“Eslang (Ey, Muhammad!), Ibrohim : “Ey rabbim, menga o‘liklarni qanday tiriltirishingni ko‘rsat”, – deganida, Olloh: “Ishonmadingmi?” – dedi. Ibrohim aytdi: “Yo‘g‘-e, lekin dilim yanada taskin topsin”. Olloh aytdi: ”To‘rtta qushni olib, huzuringga jamla(va ularni maydalab), so‘ngra (atrofingdagi)har bir tog‘ning ustiga ularni bo‘lak-bo‘lak qilib qo‘ygin-da, keyin ularni chaqirgin, (ular tirilib)darhol huzuringga keladilar. Bilginki, albatta, Olloh qudrat va hikmat egasidir”¹⁶. Qur’onda bu qushlarning nomi ko‘rsatilmagan. Lekin ularning inson kamoloti uchun xavfli va halokatli ekanligiga ishorat qilingan¹⁷.

Rumiy o‘z “Masnaviy”sida bu qushlarning nomi va sifatini aniq keltirgan: *Batu tovus astu zog‘ astu xuro‘s, In misoli chor xulq andar nufus.*

Qur’onda nomi zikr etilmagan to‘rt qushning birisi **Bat(O‘rdak), ikkinchisi Tovus, uchinchisi Zog‘ (Qarg‘a), to‘rtinchisi Xo‘roz** bo‘lib, Rumiyning e’tiroficha ular Hirs, Joh va Mansab, Orzu-Havas, Nafs va

¹⁵ Бертельс Е.Э. Суфизм ва суфийская литература. М., 1965. С.283.

¹⁶ Куръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. Таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдлазиз Мансур. Т., 2007.44-6.

¹⁷ Жумаев Р. “Лисон ут-тайр” даги бир мажозий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. 2011, №4. 25-6.

Shahvat timsolidirlar¹⁸. Tasavvuf ilmida bu qushlar majoz tushunchasiga ega bo‘ladi.

Allegorik vositalarni bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari sifatida ko‘rsatish mumkin. O‘zbek bolalar adabiyotida majoziy obrazlarning ko‘plib namunalari yaratilgan. Jumladan, Quddus Muhammadiyning “Qo‘ng‘izvoy bilan Sichqonvoy”, Qudrat Hikmatning “Ilon shoh haqida ertak”, Shukur Sa’dullaning “Och bo‘ri, sho‘x qo‘zi va qirchang‘i”, Adham Rahmatning “Qaldirg‘och, ilon, beshiktervatar haqida ertak”, P.Mo‘minning “Qovoqvoy va chanoqvoy” kabi xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida yaratilgan qator asarlarida satirik obrazlarning yetuk namunalarini uchratish mumkin. Bu asarlar so‘nggi davr bolalar she’riyatida majoziy xarakterdagi satirik obrazlarni yaratishda namuna sifatida xizmat qildi¹⁹. “Maqtanchoq chumoli” she’rida uyini suv bosgan chumolilar orasidagi qo‘rqoq chumolining ruhiy holati fosh qilinadi:

Boshqalarga

Maqtandi xo ‘p:

– *Oramizda*

Qo ‘rqaqlar ko ‘p,

O ‘rnak olsa

Bo ‘lar mandan.

Suzib o ‘tdim

Okeandan²⁰.

¹⁸ Ўша манба, 26-б.

¹⁹ Жўраева Г. Мажозий образ ва поэтик мазмун // Ўзбек тили ва адабиёти. 2009, №1. 85-б.

²⁰ Адашбоев Т. Баланд тоғлар. Т., 2002. 12-б.

Anvar Obidjonning ”Obbo kalamush-ey”, “Tekinxo‘r” kabi she’rlarida allegoriya vositasida satirik timsollar yaratilganki, o‘z o‘rnida ko‘chim she’rga quvnoq kayfiyat baxsh etgan va misralarning emotsional-ekspressivligi yanada ortgan:

Qumursqavoy

Topib uvoq,

Terga botib

Tortdi uzoq.

Chumchuq kelib

Sekingina,

Yutdi-qo ‘ydi

Tekingina.

Bolalar adabiyotida allegoriya ifodalovchi vositalar sifatida Bo‘ri (yovuzlik, ochko‘zlik), tulki (ayyorlik), Chumchuq (chaqimchi va tekinxo‘rlik), Chumoli (mehnatkashlik va maqtanchoqlik timsoli) kabi leksik birliklar muhim o‘rin tutadi.

Allegoriya asosan masal va majoziy ma’nodagi maqol va ertaklarda qo‘llanuvchi muhim ko‘chim turi hisoblanadi. Bu borada masal yetakchilik qiladi. Chunki aynan ushbu janr faqat allegoriyaga asoslanadi.

Masal (ar.-o‘xshamoq) – so‘z san’atidagi eng ko‘hna va qadimdan keng ommalashgan janr, nasriy yoki she’riy yo‘lda yoziladigan mo‘jaz hikoya; tarbiyaviy maqsadning ustuvorligi va oshkor didaktiklik xususiyatiga egaligi sababli masalga didaktik adabiyot janri sifatida qaraladi.

Masalning qurilishi uning didaktik xarakteriga mos: avval mo‘jaz hikoyacha beriladi, so‘ng “qissadan hissa” shaklidagi xulosa bilan uning majoziy ma’nosи ta’kidlab ko‘rsatiladi. Masalning hikoya qismi ertak va latifalarga, “qissadan hissa”si esa maqollarga yaqinlashadi²¹. Adabiyotlar²²da qayd qilinishicha, masallarda “qissadan hissa” – xulosa uch xil shaklda berilishi mumkin:

1.Qissadan hissa oldin beriladi: Krilovning mashhur “Oqqush, cho‘rtan baliq va qisqichbaqa” masali.

2.Qissadan hissa masalning oxirida beriladi. Hamzaning “Toshbaqa bilan Chayon”, Gulxaniyning “Maymun bilan Najor”, S.Abduqahhorning “O‘roq”, “Chalg‘i va kombayn” masallari shu xilda yaratilgan.

3.Qissadan hissa masalning boshida ham, oxirida ham berilmasligi mumkin. Yamin Qurbanning “Bo‘rsiq domkom”, “Ola ko‘ppak haqida”, Po‘lat Mo‘minning “Burun bilan quloq” kabi masallari ana shunday masallar sirasiga kiradi.

Masallarda obrazlar tizimi ham dikdaktik maqsadga mos, hayotiy holat allegorik obrazlar (jonivorlar, daraxt va o‘simliklar, narsa-hodisalar) orqali tasvirlanadi, shuning uchun ham ular universallik kasb etadi. Universallik shu ma’nodaki, masalda tasvirlangan konkret holat hayotda uchrovchi turfa holatlar uchun yechim bo‘la oladi.

Adabiyotshunoslikda aksar maqollar masallar asosida paydo bo‘lgan, degan qarash ham bor. Ya’ni muayyan masal shu darajada ommalashadiki, natijada xulosa qismining o‘zi hayotiy holatga yechim bo‘lib xizmat qiladi.

²¹ Куронов Д. Адабиётшунослик лугати. Т., 2010. 161-б.

²² Шукуров Н ва б. Адабиётшуносликка кириш. Т.: “Ўқитувчи”, 1984. 233-234-б.

Shu jihatdan qaralsa, masalning qadimdan ommalashgani uning insonlar uchun amaliy ahamiyat kasb etgani, ularning o‘zaro muloqotida fikr ifodalash uchun tayyor va samarali vosita bo‘lgani bilan izohlanadi. Zero, masallarda qadim ajdodlarning hayotiy tajribalari, turli maishiy, axloqiy, siyosiy holatlarga oid hukm-xulosalari umumlashma ifodasini topgan.

Masal janrining allegoriya, kinoya, majoz, kesatish kabi xususiyatlari yozuvchining o‘z fikrini obrazli qilib aytishga, shu bilan kitobxonda kulgi uyg‘otish va, nihoyat, unga estetik zavq berishga intilish natijasida paydo bo‘lgan. Masalda satirik va yumoristik elementlar muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ham masal satiraning poeziyasidir, deb bekorga aytilmagan. Masal satirasining kuchi ham shunda.

Masal janri adabiyotshunoslikda Ezop nomi bilan bog‘lanadi. “Masalning otasi” sanaluvchi Ezop taxminan miloddan avvalgi VI asrda yashagan yarim afsonaviy shaxs bo‘lib, unga nisbat beriluvchi masallarning aksariyati unga qadar yaratilgan deb hisoblanadi. Qadimgi hindlarning “Panchatantra” (“Kalilia va Dimna”) kabi asarlarining mavjudligi ham yuqoridagi fikrning dalilidir²³.

Yozma adabiyotda ham masal janrida ko‘plab go‘zal asarlar yaratilgan. Ezopdan so‘ng eramizning birinchi va ikkinchi asrlarida yashab o‘tgan grek masalchilari Fedr, Babriy tom ma’noda Ezopning davomchilari hisoblanadi. Fedr Ezopning nasriy usulda yozgan masallarini she’riy yo‘l bilan lotin tiliga tarjima qilgan. Jumladan, fransuz adibi J.Lafonten, nemis adibi G. Lessing, rus masalchisi I.Krilovlarning masallari dunyoga mashhur.

²³ Куронов Д. Ва б. Адабиётшунослик лугати. Т., 2010. 162-6.

O‘zbek adabiyotida Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridagi birinchi doston “Hayrat ul-abror”da va maxsus shu yo‘nalishda yaratilgan “Lison uttayr” (“Qushlar tili”) asarlarini keltirish mumkin. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarda yashab o‘tgan Muhammad Sharif Gulxaniy ham “Zarbulmasal” nomli mashhur asari bilan o‘zbek adabiyotida masalchilik rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. XX asrga kelib Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Yamin Qurbon, Sami Abduqahhor, Muxtor Xudoyqulov kabi adib va shoirlar ijodida masal janrining yaxshi namunalari uchraydi.

Gulxaniyning “Zarbulmasal”i majoziy mazmunli hikoya-masal bo‘lib, unda turmush voqealari, turli toifa va turlicha fe’l-atvorli kishilarining o‘zaro munosabatlari qushlarga ko‘chirib hikoya qilinadi. Bu jihat bilan asar Sharq masalchiligi va hikoyachiligining mumtoz namunalariga, ayniqsa, “Kalila va Dimna”ga juda yaqin. Biroq bunda asardagi obrazlar (qushlar) bir-birlari bilan maqol va hikmatlar keltirib, zarbulmasal yo‘li bilan so‘zlashadilarki, badiiy ifodaning bunday usuli masalchilik tarixida aynan ko‘rilgan emas.

Maqollarda ham hayvonlar, qushlar, o‘simgiliklar olamiga mansub nomlar allegoriyanı yuzaga keltiradi. Ammo bu ayrim maqollardagina kuzatilishini unutmaslik kerak. Majoziy ma’nodagi maqollarda zoonimlar yetakchi komponent sifatida qo‘llanadi. Bunday strukturali maqollar o‘zbek xalq hikmatlarining juda katta qismini tashkil etadi. Buni xalqimizning fikrini oshkora ifodalamay, ishora-yu ramzlar vositasida yetkazish, o‘zgalar ko‘nglini ehtiyoitlash kabi ulug‘ samimiyyati bilan izohlash mumkin. Ayni shunday ifoda imkoniyatiga majoziy xarakterdagi maqollar vositasida erishish mumkinligini dono xalqimiz juda yaxshi bilgan. Bundan tashqari

xalqimizning qadimgi etnik guruhlari asosan chorvachilik bilan shug‘ullanganlar va allegoriya ifodasiga ega xalq hikmatlari o‘zining ancha tarixiy ildizlariga ega. Shundan bo‘lsa kerak, zoonimlar leksemalar markaziy element sifatida yaratilgan maqollar emotsional-ekspressiv xususiyatlarni namoyon etadi. Mazkur strukturadagi maqollar bir qator semantik xususiyatlarga ega bo‘lib, ulardan ayrimlari ko‘chma ma’noga asoslanadi, ya’ni “hayvon” arxisemali leksemalarning ayrimlarida “shaxsga xos” semasi reallashgan bo‘lsa, ayrimlarida esa “hayvon” semasi saqlanadi. Qiyoslaymiz: *Boq otingni arpa bilan, boqar qazi qarta bilan, Yoli quyuq eshakdan yag‘ir bo‘lgan ot yaxshi, It hurisa, bulbul to‘xtaydi.* Mazkur maqollar mazmuni zoonimik leksemaning konnotativ ma’nosiga emas, balki denotativ ma’nosiga asoslangan, boshqacha aytganda, allegoriya ifoda etmagan.

Quyidagi *Itning duosi qabul bo‘lganda – osmondan suyak yog‘ar edi* maqoli esa majozan: “Yomon, niyati buzuq odamning gapi, tilagi zoye ketadi. Uning gapini hech kim inobatga olmaydi”²⁴, degan ma’noda qo‘llanadi va u allegorik xususiyatga ega. Maqolning majoziy ma’noda qo‘llanganligini “duosi qabul bo‘lmoq” sintagmasi orqali ko‘rishimiz mumkin. Chunki “duo qilish”, “niyat qilish” “shaxs” *mikromaydoni*²⁵ni tashkil etuvchi leksemalar sirasiga kiradi. Yuzaki qaraganda maqolda insonga xos nutqiy va ruhiy holat itga ko‘chirilgandek tuyuladi, aslida esa matnda istiora qo‘llangan bo‘lib, o‘xshatilayotgan ob’ekt – ”odam”

²⁴ Шомақсудов Ш.,Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Т., 1990. 173-б.

²⁵ Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол.фанл.докт....дисс.автореф. Тошкент, 1999

leksemasi kontekstda ifodalanmagan, uning ma’nosi “it” so‘ziga yuklangan: natijada metaforik ko‘chim paydo bo‘lgan.

“Hayvon” arxisemasi ishtirokidagi xalq maqollarida shakliy parallelizm vositasida qiyos–taqqoslash munosabati ham ifodalanishi mumkin va bunday qolipdagi maqollar majoziy ma’noga asoslanmagan bo‘ladi, ya’ni allegoriya yuzaga chiqmaydi:

Itning jini – devona, kelinning jini – qaynona.

Itlar ko‘chada tentirab yurgan, beozor va beparvo, ust-boshi juldur devonani ko‘rgach, uni o‘ziga raqib deb o‘ylab, tinmay akillaydi va bunga javoban devona hech bir qarshilik ko‘rsatmaydi. Jin so‘zi matnda “dushman”, “raqib” semalari bilan qaynona leksemasiga xos “tergash” semasi bilan bog‘lanadi. It so‘zidagi “tinimsiz akillash” semasi va qaynona leksemasidagi “huda-behuda tergash” semalari mantiqan qiyoslanadi. Mazkur maqolning dastlabki komponenti bilan mazmundosh bo‘lgan quyidagi maqollar ham mavjud:

It gadoydan qo‘rqadi, gadoy itdan;

It gadoy bilan chiqishmaydi;

It tishi o‘tmasa ham, gadoyning tayog‘ini tishlaydi.

Xalqimizda it leksemasi ishtirokidagi maqollar juda ko‘p va bu insonning turmushdagi doimiy hamrohi sanalgan ushbu xonaki hayvonga xos fe'l-atvor va xarakter egasi tomonidan yaxshi o‘rganilganligidan bo‘lsa kerak. *It it bilan quda bo‘lsa, o‘rtaga suyak qo‘yadi; It itligini qilmay qo‘ymaydi; It itning o‘rtog‘i bit.* Mazkur maqollarning har uchalasi ham majoziy ma’noga ega. Chunki *quda, qo‘ymoq, itlik, o‘rtoq* kabi lug‘aviy

birliklar faqat ko‘chma ma’nosи bilangina matnning semantik strukturasida ishtirok etadi.

O‘zbek tilshunosligida leksemaning sememasi tarkibida *atash semasi* (*nomlovchi sema*), *ifoda semasi* (*konnottativ sema*), *turkumlik* va *vazifa semalari* farqlanadi. Bulardan *atash semasi* va *ifoda semasi* leksik sistemalarning shakllanishida qatnashadi. “Hayvon” arxisemali leksemalar bilan shakllangan ayrim maqollar mazmuni ifoda semasi orqali reallashgan bo‘ladi. Bunday maqollar majoziy xarakterda bo‘ladi. Masalan, *Jiblajibonning es-hushi pashsha tutishda* hikmatida qo‘llangan jiblajibon – chumchuqning bir turi, uni “tog“ chumchug‘i” deb ham ataydilar. U juda serharakat qush bo‘lib, yerda mayda-mayda qadam tashlab, ildam yo‘rg‘alab, ingichka va uzun dumini doim likillatib yuradi, yerda yurgan, hatto uchib ketayotgan pashshalarni osongina tutib yeydi. Jiblajibon xalq tilida majozan “suyuq oyoq” ayollarga tashbeh beriladi²⁶. Ana shu jihatdan ushbu hikmat majoziy ma’noga ega bo‘ladi.

Badiiy asarlarda allegorik ma’noda qo‘llanuvchi maqollar orqali qahramon fikrini mustahkamlash, izohlash, ta’kidlash maqsadida ham ishlatiladi. Masalan,

Yolg‘iz otning changi chiqmas,

Changi chiqsa ham dong‘i chiqmas

Maqolida ot o‘z ma’nosida emas, balki ko‘chma ma’noda shaxs(inson) ma’nosida qo‘llanilyapti. Bu maqol zamirida “inson yolg‘iz o‘zi muvaffaqiyatlarga erisha olmaydi.”

²⁶ Ўша китоб, 138; Ўзбек тилининг изоҳли лугати. II жилд. Т.: ЎМЭ, 2006. 80-6.

U yoki bu maqolning ko‘chma ma’nosini, unda nima deyilmoqchi bo‘layotganligini aniqlash uchun maqolda keltirilgan obrazlarning mohiyatini to‘g‘ri anglamoq kerak. Masalan: xalqimiz *sherni* – mard, dovyurak, botirlarga; *tuyani* – el-yurt og‘alariga, buzruklariga, shuningdek, kuchli, chidamli, sabot-matonatli, ba’zi hollarda esa takabbur kishilarga; *eshak* va *ho‘kizni* – befahm, befarosat, dangasalarga; *qo‘yni* – yuvosh tabiatli kishilarga, shuningdek, mazlumlarga; *echkini* – ayyorlarga, yengil tabiatlilarga; *bo‘ta*, *buzoq*, *toy*, *qulun*, *qo‘zi*, *uloq*, *ho‘tik*, *palaponni* – bolalarga; *itni* – ochko‘z, sulloh illatlarga ega bo‘lgan kishilarga; *bo‘rini* – qonxo‘r, zolimlarga; *tulkini* – ayyor, ikkiyuzlamachilarga; *quyonni* – *qo‘rqoqlarga*; *qulonni*–sergak, hushyor, aqlii tadbirkorlarga; *sichqon*, *kalamush*, *chumchuq*, *chigirtkani* – tekinxo‘r va zararkunandalarga (ayrim hollarda *sichqonni* – mazlumlarga); *chumolini* – mehnatkash, mazlumlarga; *qurbaqani* – ishyoqmas, dangasa, quruq maqtanchoqlarga; *burgut*, *lochin*, *shunqorni* – dovyurak, botir, mard, chaqqon odamlarga; *qarg‘a*, *quzg‘unni* – ko‘pincha toshko‘ngil, qora niyatli kishilarga; *gulni* – ko‘pincha qizlarga; *yantoqni* – quruq maqtanchoqlarga; *qovun*, *bug‘doy, olma* singarilarni – yaxshi odamlarga; *qovoq*, *tarrak*, *arpa*, *qoramug‘*, *kurmak* singarilarni – yomon odamlarga nisbat etadi va h.k.

Majoziy ertaklarning bosh qahramonlari bo‘lgan hayvonlar ham allegorik xususiyatga ega bo‘ladi. Chunki bu kabi ertaklarda majoz hayvonlar xarakterida insoniy xislat va nuqsonlarni tasvirlash hisobiga o‘z ifodasini topadi. Bunday timsollar bo‘ri, ayiq, sher, tulki, qo‘y, echki, kalamush, sichqon, sigir, qushlar kabi o‘z mundarijasiga ega bo‘ladi va udar orasida bo‘ri allegorik obrazi alohida o‘rin tutadi. Bo‘ri hayvonlar

haqidagi ertaklarda asosan, salbiy xislatlar bilan ko‘zga tashlanuvchi obraz sifatida mashhur. Uning ertaklardagi muayyan shakliga kirgan badiiy obrazi o‘zining afsonalardagi o‘tmishdoshidan farqli o‘laroq, hech bir asosda ijobiylilik kasb etmaydi²⁷. Bundan sehrli ertaklar mustasno, albatta²⁸. Chunki sehrli ertaklarda bo‘rining totemistik e’tiqodalar bilan bog‘liq jihatlari muayyan darajada saqlanib qolgan. Biroq uning badiiy ko‘chim doirasiga tushgan dastlabki, arxaik shakli va mazmuni sehrli ertaklar talabi hamda tabiatiga moslashgan holda voqelikka aylangan. Hayvonlar haqidagi ertaklarda esa bo‘riga bo‘lgan mifologik e’tiqod izlari saqlangan. U salbiy personaj sifatida namoyon bo‘ladi. *“Bo‘ri obrazi talqinida ikki xil belgi aniq ko‘rinadi, - deb yozadi K.Imomov, – Biri bo‘ri – qonxo‘r, ikkinchisi esa bo‘ri –laqma. Laqmalik belgisi ijtimoiy hayotning chorvachilik bosqichida vujudga kelgan uydirma. U zarar keltirgan hayvonlardan qasd olish, mazax qilish niyatida to‘qilgan va u an’anaga aylangan”*²⁹.

Ko‘rinadiki, hayvonlar haqidagi ertaklarda bo‘rining salbiy personaj sifatida konkretlashuvi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar mahsuli tariqasida yuzaga kelgan: chorvachilik munosabatlari iqtisodiy tarmoq sifatida qaror topgach, totem – yaratiq– bo‘riga nisbatan ishonch va e’tiqod kuchsizlangan hamda yo‘qola borgan.

Bundan tashqari, uning mazmunida urug‘, qavm yoki qabilalar aro ziddiyat va raqobatning ilk izlari aks etadi. Shuning uchun ham mazkur

²⁷ Зариф X. Фольклор ва археология материалларини қиёсий ўрганиш масалаларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1958, 1-сон. 29-б.

²⁸ Жалолов F. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. Т., 1976. 22-б.

²⁹ Имомов К. Ҳайвонлар ҳақидаги эртаклар. Ўзбек фолклори очерклари. 3 жилдлик. 2-жилд. Т., 1989. 76-84-б.

personajning ertaklardagi badiiy talqini hamma vaqt salbiy xususiyatlarni gavdalanadi.

Ertaklardagi bo‘ri timsolida tulkingin ayyorligi oldida ojiz qoladi (demak, “laqma” va “go‘llik” semalari namoyon bo‘ladi); hayvonlarning bolalarini o‘g‘irlagan yirtqich(“yovuzlik” semasi namoyon bo‘ladi) sifatida jazoga giriftor bo‘ladi³⁰.

Bo‘ri allegorik vosita sifatida tanlangan ertaklarda tulki, echki, qo‘y, qo‘zi, xo‘roz, xachir, ho‘kiz, ot kabi leksik birliklar ham allegorik xususiyatga ega bo‘ladi; ayrim ertaklarda timsollar mundarijasи eshak va sichqon hisobiga boyishi mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash mumkinki, har qanday allegorik vositada “shaxs” semasi reallashgan bo‘ladi. Allegorik vositalar leksik sath birliklaridan tanlanadi va ularning mazmuniy mundarijasи nihoyatda keng qamrovli bo‘lib, u yoki bu shakldagi vositalar ifodalaydigan majoziy ma’no muallif maqsadlari va ossotsatsiyalariga bog‘liq bo‘lib qolaveradi. Shunday bo‘lsa-da, ayrim tasavvurlarning ommaviyligi allegorik vositalarni simvol darajasiga ko‘taradi. Ko‘rib o‘tilgan barcha poetik matnlarda allegorik vosita ifodalash uchun asosan hayvon nomlari tanlanadi. Chunki hayvonlar muayyan xarakter-xususiyatlari bilan insonlarga ancha yaqin turadi. Bu esa hayvon nomlarini allegorik vosita sifatida samarali qo‘llash imkonini beradi. O‘simlik va boshqa predmetlarda “shaxs” ifoda ma’nosining yuzaga chiqishi juda kam kuzatiladi. Bu esa ushbu birliklarning allegorik vosita sifatida tanlanish imkoniyatini kamaytiradi.

³⁰ Жумаева С. Эртакларда рақиб персонажлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2012, 1-сон. 54-б.

II bob Allegorik vositalarning nutq uslublarida qo'llanilishi

2.1.So‘zlashuv uslubida qo’llanuvchi allegorik vositalar

Allegorik vositalar ma'lum bir nutq uslublariga nisbatan xoslanishga ega. Aloqa-aratashuv, muloqot jarayoni insonlarning turli vaziyatlar va shart-sharoitlarini, faoliyatning barcha sohalarini qamrab olgan. Ayni bir til birligi qo'llanilish doirasiga ko‘ra ma'lum chekhanishlarga, xoslanishga ega. Har bir til doirasidagi bunday tanlanish hodisasi nutqning xilma-xil ko‘rinishlarni vujudga keltirgan. Nutqning bu xilma-xil ko‘rinishlari nutq uslublari deyiladi.

Nutq uslublari - ifoda vositalari sistemasining muayyan aloqa doirasida maqsadga muvofiq tanlash natijasida tashkil topgan nutq ko‘rinishlaridir.³¹ Nutq uslublarining har biri alohida yagona bir sistemani hosil qiladi. Nutq uslubining bir-biriga bog‘liq elementar sistemani hosil qilishi aloqa-aratashuv quroli bo‘lgan tilning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi. To‘gri, tilning fonetik tuzilishi, grammatic qurilishi va lug`at tarkibining har biri ham alohida bir sistemani tashkil etadi. Tilning funksional uslublari mana shu leksik, grammatic va fonetik sistemalarga xos barcha vositalarning ma'lum kommunikativ maqsadga ko‘ra uyushishi tufayli bunyodga keladi.

U faqat muayyan hodisalar tarkibi bilangina emas, balki ularning bog‘lanishi, aloqasi va munosabatlari bilan ham xarakterlanadi. Demak, nutq uslublari tilning vazifasi - funksiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham ular funksional uslublar deb yuritiladi. Demak, tilning stilistik sistemasini ta’riflashda til birliklaridagi funksional- stilistik bo‘yoq muhim belgi sifatida asosga olinishi lozim. Ekspressiv-stilitik bo‘yoq esa, asosan, so‘zlarning o‘zaro semantik munosabati tufayli sodir bo‘ladi. Buni, ayniqsa, bir sinonimik qatordagi so‘zлarni

³¹ Шомақсудов А. ва бошқалар. Узбек тили стилистикаси.-Тошкент:Ўқитувчи, 1983, 9-бет.

solishtirganda yaqqol ko‘rish mumkin. Masalan, yuz, bet, aft, turq, oraz kabi bir sinonimik qatordagi so‘zlar o‘z stilistik bo‘yog‘iga ko‘ra farqlanadi. Yuz va bet so‘zlari stilistik bo‘yog‘i jihatidan neytral hisoblanadi. Aft, bashara, turq so‘zlari esa salbiy bo‘yoqqa ega. Ba’zan yakka holda olingan so‘z va grammatik qurilish stilistik bo‘yog‘ining qaysi uslubga mansubligini aniqlash ham qiyin bo‘ladi. So‘z va grammatik qurilishning stilistik bo‘yog‘i faqat ma’lum nutq matnida boshqa elementlar bilan bo‘lgan munosabat va bog‘lanishda shakllandi. Bunday stilistik bo‘yoq nutq situatsiyasida reallashadi. Masalan, tulki so‘zi yovvoyi hayvonlarning bir turiga nisbatan ishlatilsa, stilistik bo‘yog‘i neytral bo‘ladi; odamga qarata “quv, ayyor” ma’nosida qo‘llanilsa, bu so‘z muayyan stilistik bo‘yoq kasb etadi. Funksional uslublar nutq ko‘rinishlarining asosiy vazifalariga (aloqa-aratashuv; ta’sir etish vositasi bo‘lishiga) muvofiq qismlarga bo‘linishidir. Shunga ko‘ra adabiy tilning quyidagi funksional uslublarga ajratiladi;

1. So‘zlashuv uslub;
2. Ilmiy uslub;
3. Rasmiy uslub;
4. Publitsistik uslub;
5. Badiiy uslub.

Tilning bu funk1sional uslublari inson faoliyatining u yoki bu sohasiga mos keluvchi umumxalq tilining turli xil ko‘rinishlaridir. Funksional uslublarni nomlash va atash ham ularning qanday aloqa doirasida ishlatilganligiga qarab belgilanadi. Chunki bir xil narsa-hodisalar haqidagi fikrlar turli-xil uslublarda birdek bayon qilinmaydi. Allegorik ma’noda qo‘llanuvchi lisoniy vositalarni so‘zlashuv uslubida ko‘proq uchratishimiz mumkin. Masal, ertak, ayniqsa, maqol janrida bunday misollar ko‘p keladi. O‘zbek tili shaklan ixcham, mazmunan keng

mundarijaga ega bo‘lgan, estetik jihatdan nafis, jozibali, bezakli maqol va aforizmlarga boy til hisoblanadi. Maqollar “yetti o‘lchab, bir kesilgan” nutq ko‘rinishi bo‘lib, ular fikrni sodda va lo‘nda jumlalar orqali to‘liq va mukammal ifodalashga xizmat qiladi.³² Maqollar o‘zbek og‘zaki ijodining ommaviy janrlaridan biridir. Asrlar davomida og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan maqollar xalqimizning dunyoqarashi, jamiyatga bo‘lgan munosabati, tarixi va ruhiy holatini ifodalaydi. Maqollarda hayotiy tajribalar natijasida kelib chiqqan qimmatli fikrlarning xulosasi ifodalanadi. Maqollar ko‘pincha poetik shaklga ega bo‘ladi. Ular o‘zining ixcham, pishiq va puxtaligi bilan ham xalq og‘zaki ijodining boshqa turlaridan farq qiladi.

Maqollar chuqur va mukammal mazmunga ega bo‘lib, ularda mehnatkash xalqning donoligi, milliy an’anasi, uzoq asrlik hayotiy tajribalari hamda mehnat yakunlari mujassamlashadi. Maqollar avlodan-avlodga o‘tib kelayotgan meroslarimizdandir. XI asrning buyuk tilshunos olimi Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining «Devoni lug‘atit turk» nomli asarida qadimiy urug‘ va qabilalar orasida keng tarqalgan maqollardan juda ko‘p namunalar keltiradi. Bu maqollarning bir qanchasi hatto hozir ham xalqimiz orasida turli variantlarda ishlatilib kelinadi.

Masalan:

1) devonda: «*Kishi olasi ichtin,*

Yilqi olasi toshtin.»

2) hozirda: «*Odam olasi ichida,*

Mol olasi tashida».

Maqollarni har doim ham o‘z ma’nosida qo‘llayvermaymiz. Ko‘chma ma’noda foydalanish imkoniyatlari ularda juda ham keng bo‘ladi. Shu jihatdan

³² А.Мамажонов, А.Тилланазаров. Аллегорик маънода қўлланувчи лексик воситалар. Олий ўқув юртларида туркий тилларни ўрганиш ва ўқитиш муаммолари. Фаргона-Ўш 2004.

allegorik vosita ishtirok etgan maqollar yordamida so‘zlovchi o‘z niyat-maqsadini yashirin holda ifoda etishi ham mumkin. Tarkibida allegorik ma’noda qo‘llanuvchi lisoniy vositalar ifodalangan maqollar orqali nazarda tutilgan asosiy mazmun esa ana shu maqolni shakllantirgan nutq birliklarining *ko‘chma* ma’nosи yordamida yuzaga chiqadi. Misollar orqali ko‘rib chiqamiz.

It hurar, karvon o ‘tar

Ushbu maqolda *it* so‘zi hayvon ma’nosida ishlatilmaydi, balki insonga nisbatan ishlatiladi, ya’ni bu maqol zamirida yaxshi insonlarning yaxshi ishlarini ko‘ra olmaydigan, ular orqasidan yolg‘on g‘iybat gaplarni tarqatib yuruvchi kimsalarga kinoya ma’nosи yashiringan. Ular har qancha yomon gapirmasin, g‘iybat gaplarni tarqatmasin, hayot davom etaveradi, yaxshilik hech qachon o‘lmaydi.

Chiranma goz, hunaring oz.

Bu maqol orqali maqtanchoqlik illati fosh etiladi.

Arslon izidan qaytmas.

Bu maqoldagi arslon so‘zi yigitlarlarga nisbatan ishlatilib, ulardagi mardlik, jasurlik ulug‘lanadi.

Bedananing uyi yo ‘q,

Qayerga borsa «pitbildiq»

Ushbu maqolda bedana orqali shaxsga ishora qilinyapti. Hayotda ko‘plab uchraydigan ikkiyuzlamachilar, har qanday sharoitga, har qanday kishilarga moslashib ketaveradigan laganbardorlar tanqid ostiga olinmokda.

Bo ‘yidan boylangan it ovga yaramas.

Bu maqolda ham *it* so‘zi shaxsga nisbtan ishlatilyapti. Biror ishni majburan bajarishga jalb etilgan kishilar hech qachon o‘sha ishni maromiga yetkazib,

muvaffaqiyatli bajarmaydilar. Xalq og‘zaki ijodining allegoriyaga asoslangan mustaqil janrlardan yana biri naqlidir. Naqlning allegorik ma’nosi va ta’limiy-didaktik vazifasi uning asosiy va hal qiluvchi belgisi hisoblanadi. Naqlarning yuzaga kelishi va shakllanishida 2 manba asosiy ro‘l o‘ynaydi. Birinchi manba-xalqning hayotiy tajribalari va dono falsafasi, ikkinchi manba esa shu kungacha ma’lum va mashhur bo‘lgan hind xalq kitoblari “Panchatantra” va uning tajrimalari, “Kalila va Dimna” hamda o‘zbek xalq ertaklari va maqollaridir. Naqllardagi To‘g‘rivoy, Yaxshivoy, Soddavoy, Egrivoy, Ayyorvoy kabi obrazlar xalqning yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarini ifodalovchi allegorik umumlashma obrazlardir. Bir naql: «*Muchallarning bir yilini bir hayvonning nomi bilan atash niyatida hamma hayvonlarni bir yerga chaqiribdilar. Qaysi hayvon ko‘zga birinchi ko‘rinsa, muchalning birinchi yili o‘scha hayvon nomi bilan ataladi, deb shart qo‘yibdilar. Shunda tuya bo‘yiga inonib, bamaylixotir kelaveribdi. Sichqon qarasaki, hayvonlarning oyog‘i ostida ko‘rinmay qolib ketyapti. U yugurib borib, tuyaning boshiga chiqib turib olibdi. Natijada sichqon ko‘zga birinchi bo‘lib ko‘rinibdi. Shundan keyin 12 yillik muchalning birinchi yili sichqon nomi bilan atalibdi. Qolgan yillar birin-ketin ko‘zga ko‘ringan hayvonlar nomi bilan atalibdi. Tuya esa yildan quruq qolibdi.*»³³ Naqlidan ma’lum bo‘ladiki, hikoya qahramonlari - tuya va sichqon allegorik obrazlardir, ularga allegorik ma’no singdirilgan. Bu narsa syujet voqealariga nasihatmuzlik baxsh etgan. Chunki asrda to‘grilik, ayyorlik va xudbinlikka qarshi qo‘yilgan. O‘ziga -o‘zi mahliyo va ayni paytda bamaylixotir kishilar yengil kulgi ostiga olingan, ayyor kimsalar esa tanqid qilingan. Naqlagi majoziylik tuya va sichqon harakati orqali ifodalangan.

³³ Узбек халқ әртаклари ва накъллари -Т. 2004. 45-бет

Sinfiy jamiyatning paydo bo‘lishi hayvonlar haqidagi ertaklarning majoziy allegorik ma’noga ega bo‘la boshlashlariga sababchi bo‘ldi. Natijada ularda hayvon- persanajlarning mazmuni va munosabatlari bo‘rtirildi, konflikt ijtimoiy-siyosiy ma’no kasb eta boshladi. Bir vaqtlar totem sanalgan hayvonlar ijtimoiy-siyosiy mazmunni aks ettiruvchi ko‘chma, allegorik ma’nodagi persanajlarga aylandi. Bunday ertaklarning g‘oyaviy mazmuni va obrazlar talqinida majoz-allegoriya asosiy o‘rinda turadi. “Bo‘ri va Tulki”, “Tulkining taqsimoti”, “Ikki boyqush”, “Chumchuq”, “Ilonning ishi zahar solmoq”, “Xiylagar bedana” kabilar allegoriya asosiga qurilgan ertaklar hisoblanadi.

Ertaklardagi allegorik obrazlar g‘ayriodatiy tarzda turli-tuman voqelikni, borliqni o‘ziga xos tarzda ifodalashi bilan ajralib turadi. Ertaklardagi evrilishlar, bir jonzotning ikkinchisiga aylanib qolishi sifat o‘zgarishining miqdor o‘zgarishiga olib kelishi; zamon va makon birligining yo‘qolishi va uch olam-yer, osmon, yer ostida hayot borligi, ularning doimo bir- biriga bog‘liq ekanligi qiziqarli tarzda bayon etiladi. Masalan, “*Bulbuligo ‘yo*” ertagidagi qush sifat o‘zgarishiga uchraydi, ya’ni g‘aroyib qush “oy desa yuzi, qalam desa qoshi, kunduz desa sochi bor” sohibjamol qizga aylanadi yoki kuyov bo‘lish maqsadida dev xushro‘ygina, shahzodasifat yigit suratiga kiradi, maqsadiga erishib bo‘lib, devda yana sifat o‘zgarishi-bir yag‘ir xachirga aylanib, tuproqqa belanishi kuzatiladi. Shuningdek, ertaklardagi allegorik obrazlarning o‘zaro almashinishi, evrilishi mantiqiy izchillikda yuz beradi. Masalan, “*Kashmiri*” ertagidagi yigit ajoyib otga, so‘ng tuyaga aylanadi, kashmiri uni so‘ymoqchi bo‘lganda, kaptar bo‘lib uchib ketadi, qizning otasi burgut bo‘lganda, yigit baqaga aylanib suvga kiradi, kashmiri laylak bo‘lib uni izlaydi. Yigit bedana bo‘lib uchib ketsa, uni qig‘iy bo‘lib axtaradi, yigit gulga aylansa, kashmiri bulbul, tariq bo‘lib sochilib ketsa, chol uni tovuq bo‘lib cho‘qiydi va nihoyat yigit mushukka aylanib, jo‘ja va tovuqni yeb qo‘yadi. Matndagi hayvonlarning tabiatan bir-biriga zid qo‘yilishi matnga xos antonimlikni vujudga keltiradi.

Ertaklarda uch olamning tabiiy-ruhiy bog‘liqligi unda qo‘llangan hayvonot

olami yordamida ochib berilgan. Masalan, kenja botirning yer ostidan yuzaga chiqishi (“Semurg‘ qush”) yoki qizning hovuz tubidagi ilonlar sultanatiga tushib qolishi (“Opa-uka”), “Kampir va o‘g“il” ertagidagi yigitning no‘xat poyasida qizil, qora, sariq devlar makoniga chiqib borishi hayvonlar haqidagi ertaklarda yuz beradi. Uch olamda hayot davomiyligini ta’minlab turuvchi hayvonot olamini quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Yerdagi hayvonot olami: ular an’anaviy o‘rmon hayvonlari *bo‘ri, tulki, sher, yo‘bars, shoqol, toshbaqa, tipratikan, ayiq hamda qurt - qumursqa kabi hasharotlar;*
2. Yer ostida hukumron sifatida tasvirlangan sudraluvchilar oilasiga kiruvchilon;
3. Osmon egalari deb tasvirlangan qushlardan: *burgut, lochin, qirg‘iy, bulbul, g‘oz, laylak* singari jonzotlar uchraydi va ularning har biri ertaklarga xos kontekstual - okkazional ma’nolarni kashf etadi.

Yerdagi hayvonlar orasida yirtqich, sutemizuvchilar oilasiga kiruvchi bo‘ri “Yovvoyi mushuk”, “Tulki va bo‘ri”, “Susambil”, “O‘tinchi chol” ertaklarida o‘zining laqmaligi, ochko‘zligi sababli bog‘bondan kaltak yeydi, *mushukdan* qo‘rqadi, chol uni aldaydi, uy hayvonlaridan pand yeydi. O‘zbek xalq ertaklarida bo‘ri ochko‘z va laqma singari majoziy allegorik ma’nolarni ifodalaydi. Tulki esa, aksincha, ayyor, quv, o‘z jonining huzurini biladigan olg‘ir sifatida namoyon bo‘ladi. “Shum tulki” ertagida ayiqqa, bo‘riga yaldoqlanib, ularga tovuq patidan bolish keltiradi, “yovvoyi mushuk” ertagida esa mushukka yaldoqlanib, “yangi podshoning” yonida yurishga harakat qiladi, “Ayyor tulki” ertagida esa bo‘rini quduqda qoldiradi, “Bo‘ri bilan tulki” ertagida bo‘rini qopqonga ilintirib, undagi go‘shtni o‘zi yeydi, shu ertak oxirida ayyorlikni yaxshilik yo‘lida sarflaydi, u qushchani bo‘rining zulmidan asrab qoladi. Hayvonlar haqidagi ertaklarda qo‘llangan allegorik obrazlar orqali qarama-qarshi kuchlarning birligi va kurashi

ertak syujetini rivojlantiradi, ayyor tulki va laqma bo‘ri, ayyor mushuk va laqma o‘rmon hayvonlari o‘ziga xos sifatlari bilan kontekstual antonimlikni vujudga keltiradi. Yirtqich o‘rmon va dasht hayvoni bo‘lgan sher maishiy ertaklarda saroy qo‘riqchisi, sehrli ertaklarda yalmog‘iz kampirning xizmatchisi, hayvonlar xaqidagi ertaklarda esa jonzotlar sulton, shohi sifatida tasvirlanib, laqma, zolim kabi majoziy ma’nolarni yuzaga chiqaradi. “Qo‘chqorxon to‘ra” ertagidagi qo‘y sher yordamida och bo‘rilardan, so‘ng sherning o‘zidan aql - zakovati, fahm-farosati bilan qutuladi. Biroq barcha ertaklarda ham hayvonlar majoziy ma’no kashf etmaydi, masalan, “O‘ynang, kuchugim, o‘ynang» deb nomlangan hayotiy ertakda sherning uzual leksik ma’nosи, ya’ni dasht - biyobondagi bahaybat yirtqich hayvonligi tasvirlanadi. Yoki “Ozodachehra” ertagida ham sher shoh qizini oti bilan birga havoga otadi, ya’ni kuchli, yirtqich hayvon sifatida namoyon bo‘ladi. Ertak qahramonlarining jasur, kuchli ekanligini sinash uchun sher, yo‘lbarslardan (“Kenja botir”, “O‘ynang, kuchugim, o‘ynang”, “Muqbil toshotar” ertaklarda) foydalaniladi, ya’ni *sher*, *yo‘lbars* leksemalarining ertaklarga xos funksional semasini yuzaga chiqaradi. “Muqbil toshotar” ertagida ham yo‘lbars malikaga hujum qiladi, yigit uni qutqaradi, so‘ng podsho muqbil toshotarga shunday shart qo‘yadi: “-Ey, pahlavon yigit! Qizimni senga berishga roziman, lekin bir shartim bor: ikki qo‘lingda to‘rttadan sakkizta yo‘lbarsni etaklab kelasan. Agar shu shartimni bajo keltirsang, qizim seniki”. Ko‘rinadiki, o‘zbek xalq ertaklarida hayvonlar quyidagi allegorik obrazlarni ifodalaydi:

- ❖ asosiy, etakchi qahramon (“Susambil” ertagida);
- ❖ bosh qahramonga yordam beruvchi - do‘st, hamroh (kuchuk, ot, burgut “Yetim bola” ertagida);
- ❖ yovuz kuch timsolida harakatlanadi (dev, ajdar, sher “Tilla taroq”

ertagida).

Shuningdek, “Egri va to‘g‘ri” ertagida *arslon* - podshoh, *yo‘lbars* - vazir, *bo‘ri* - karnaychi, *qashqir* - surnaychi, *tulki* - dostonchi, deb ta’riflanadi va majoziy, okkazional ma’nolarni yuzaga chiqaradi, ya’ni yuqoridagi *arslon*, *yo‘lbars* *bo‘ri* kabi leksemalarning ma’no mundarijasida “podshoh”, “vazir”, “karnaychi” kabi semalar mavjud emas, bu ertaklardagi kontekstual qo‘llanish, allegorik ma’nodir.

Hasharotlar turkumiga kiruvchi chumolilarning mehnatkash, tinib-tinchimasligi tilda maqol, matal - iboralarda o‘z aksini topgan, ertaklarda esa do‘sit, birodarligi bilan ajralib turadi. “Kampir va o‘g‘il” ertagida no‘xatvoy chumoli, qurt-qumursqalarning podshohlaridan do‘sit-birodarlari borligi, ularni tutatqi yordamida chaqirganligi, ming-ming, o‘n ming chumolilarni yig‘ib, bir kechayu bir kunduzga qolmasdan daladagi barcha tariqlarni terib, qoplab berishligi tasvirlanadi.

Ertaklarda uy hayvonlari ham qatnashib, o‘ziga xos allegorik ma’noni yuzaga chiqaradi. Tarixiy taraqqiyot natijasida madaniylashgan otlar ertaklarning etakchi qahramonlaridan bo‘lib, ular g‘ayriodatiy uchar otlar va oddiy otlarga bo‘linadi, ya’ni “Qilich botir”, “Olmos botir” ertaklarida *uchar ot*, “Malikai Oyxumor” ertagida *rahnomo*, “Sohibqiron” ertagida *chopqir ot*, “Egri va to‘g‘ri” ertagida *jasoratli*, *qo‘rqmas ot* sifatiga ega bo‘ladi. “Malikai Oyxumor” ertagida ot shunday vasiyat qiladi:

“- *Ey, Malikai Oyxumor, mening ajalim yetdi, endi men o‘lamon, lekin meni shundots tagilab ketma. Mening ikki cho‘ujim senga shki cho‘rissiz, ikki ko‘zgt ikki chirots, tezagim oltin, tanam esa senga birsso‘rgon bo‘ladi, jonim birssarchigayssushga aylanadi. Mening dumimdan bir tutamini olibssolib,*

tutatsang, ana shular hoziru nozir bo‘ladi, - debdi-da, jonivor bir osmonga intilib o‘libssolibdi.»

Bu misoldagi ot vasiyati uning rahnamo, himoyachi ekanligidan dalolat beradi. «Tilla taroq» kabi ba’zi ertaklarda esa dev otga aylanib, ziyon-zahmat etkazuvchi kuch allegorik obrazni vujudga keltiradi, bu esa “*otning devi bor*” degan animistik qarashdan yuzaga kelgan, ya’ni aksariyat ertaklarda ot ezgulik timsoli, yana ba’zi ertaklarda ziyon yetkazuvchi deb tasvirlanadi, bu hodisa tilda enantiosemiya bilan izohlanadi, ya’ni bitta leksema ma’nosida nutqiy muhit talabiga ko‘ra uning mundarijasidagi semalarining zidlanishi yuzaga kelgan. Ertaklarda eng ko‘p qo‘llanadigan uy hayvonlaridan yana biri it bo‘lib, uning vafodor, qo‘riqchiligi matnda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi va *it* leksemasining uzual ma’nosi yuzaga chiqadi. Biroq “Sohibqiron”, “Opa-uka” ertaklarida podsho xotinlarining chaqaloqlari aynan kuchuk bolalari bilan almashtirib qo‘yiladi. Bu holat qadimdan itga homiy deb qarash, urug‘-qabilalarning e’tiqodi bilan izohlanishi mumkin. Biroq *it* leksemasidagi vafodorlik semasi insoniylik tushunchasiga yaqin turadi, shu bois ertaklarda inson bolasi yirtqichlar bilan emas, aynan kuchuk bolasiga almashtirilgan bo‘lishi mumkin. Uch olam birligining tarkibiy qismi bo‘lgan yer osti ilon bilan bog‘lanadi, ya’ni sudralib yuruvchilar oilasiga mansub zaharli ilon ertaklarda yer osti mamlakatining egasi,adolatli, insonga og‘a-birodar va albatta zaharli jonzot allegorik ma’nosida tasvirlanadi. Masalan, “Opa-uka” ertagida hovuzga tushib ketgan qizga ilonlar o‘z makonidan joy beradi, hasan va husanga ikki beshik in’om etadilar yoki “Nodon bola” ertagidagi ilonadolat va rahm-shafqat yuzasidan har kungi qatiq evaziga bir tillani kosaga tashlab ketadi, biroq ochko‘z bola uni o‘ldirmoqchi bo‘lganda, ilon bolaning yuragiga chang soladi, yana bir

“Kichkinajon – kichkina” ertagida ilonshoh «*Assalomu alaykum*» so‘zi hurmatidan og‘a-inilarni o‘ldirmaydi, ertak oxirida esa bir olmadan paydo bo‘lgan kichkinajon va ilon bolasi aka-uka bo‘lib, bir-birlariga yordam beradilar. Ko‘rinadiki, *ilon* leksemasining ma’no mundarijasidagi “zaharli” semasiga ijobiy sub’ektiv baho berilib, undagi “sovuum”, “xujumkor” semalari chekingan, ya’ni ilonning behudaga insonlarga ziyon keltirmasligi ta’kidlangan. Ingliz olimi Dessmond Morris insonlarning hayvonlarga munosabatini aniqlaganda, turli millat kishilarida ilondan qo‘rqish, jirkanish, uni o‘ldirishga harakat qilish kabi emotSIONAL - ruhiy holatni³⁴ kuzatgan, ertaklar esa bolada aynan shunday salbiy hissiyotni yo‘qotishiga yordam berishi mumkin.

Ko‘k - osmon metaforik ko‘chim orqali ifodalanganda, bu so‘zda doimiy tinchlik, osudalik, pokizalik, ezgulik ramzi yashiringan, shu bois ertaklardagi qushlar ham aksariyat yaxshilikka xizmat qiladi. Jumladan, ertaklarda:-podshoh qush (“Ur to‘qmoq” ertagidagi *laylak*);

-vafodor do’st (“Uch og‘a-inilar” ertagidagi *to’ti qush*);
-devning joni (“Malikai oyxumor” ertagidagi kabutar);
-xabarchi qush (“Cho‘pon bilan qiz”, “Non qudrati” ertaklaridagi *to‘rg‘ay qush*);

-tabib qush (“O‘tinching qizi” ertagidagi *ko‘k kaptar*, “Olmos botir” ertagidagi bulbuligo‘yo) kabilarga bo‘linadi. Shuningdek:

-*semurg* ‘ - kimning boshiga qo‘nsa, podshoh bo‘ladi deb ta’riflangan, baxt, davlat qushi;

-*anqo qush* - topilmas, noyob qush (“qahramon”);

-*bulbuligo‘yo* - sayroqi sehrli qush sifatida ertaklardagi ideozoonimlardir.

³⁴ БУ ХАҚДА: СОРОКИН Ю.А., МАРКОВИНА И.Ю., КРЮКОВ А.Н. ЭТНОПСИХОЛИНГВИСТИКА. - МОСКВА: НАУКА, 1988. -288 Б.

Ideozoonim - tabiatdagi emas, inson tasavvuridagi jonzotlardir. Ko‘rinadiki, ertaklardagi hayvonlar, quyidagi ma’joziy ma’nolarda : homiy, do‘sst - birodar, tabib, qahramonlik shartlarining biri hamda oddiy kelin qalini sifatida (“o‘tinchining qizi” ertagidagi chol “*yuzta sigir, yuzta tuya, ikki yuzta ot va ming tilla berganga qizimni beraman*» deb va’da qiladi.) Ertaklardagi dev, ajinalar esa antropomorf shaklda, ajdar zoomorf - ilonlar shaklida namoyon bo‘ladi. Ertaklarda evrilishlardan, bir jonzotning ikkinchisiga aylanishidan tashqari, har bir jonzotning tutatqisi, ya’ni uni yordamga chaqirish usuli mavjud bo‘ladi. Yana ba’zi bir ertaklarda hayvonlar aslida insoniy munosabatlarni yuzaga chiqaruvchi majoziy obrazlar hisoblanib, unda hayvonning umumiyligi belgilaridan ko‘ra xususiy kontekstdagi ma’no ustunligi seziladi. Shu bois ko‘plab ertaklardan atoqli otni ifodalash uchun affiksoid va izohlovchi - izohlanmish munosabatlaridan foydalaniadi. Masalan: *sher bobo, shervoy aka, sher turam, tulkivoy, ko‘ppakovoy, qo‘yxon* (“Qo‘chqorxon to‘ra” ertagida), *ajdarxon sulton* (“Tilla taroq” ertagida), *mulla to‘rg‘ayvoy* (“Non qudrati” ertagida), *kuchukvachcha* (“Yetim bola” ertagida) va h.k. Shuningdek, aksariyat hayvonlar haqidagi ertaklarda jonzotlar shaxs sifatida qo‘llanilib, bosh harflar bilan yoziladi.

Yuqorida allegorik ma’noda qo‘llanuvchi lisoniy vositalarning so‘zlashuv uslubida, xalq og‘zaki ijodida qo‘llanilishini ko‘rib o‘tdik. Ularning ba’zi grammatik xususiyatlari haqida ham to‘xtalmoqchimiz. So‘zlashuv uslubining ishlatilish sharoitlari, ohang va imo-ishora singari vositalardan foydalanish hamda fikr va bayonning, asosan, kundalik turmush xarakteriga ega bo‘lishi, odatda, gap tuzilishining juda murakkab konstrurksiyalarni talab qilmaydi.

Maqollarda allegorik ma’noda ishlatilayotgan so‘zda qaratqich kelishigi *-ning* tushurib qoldirilish hollari ko‘plab uchraydi. Masalan,

Ot tepkisini ot ko ‘tarar.

Arslon og ‘zidan ov olinmas.

Arslon bolasini ovlash uchun, arslon uyasiga kirmoq kerak.

Tovuq tushiga don kirar.

Ba’zan qaratqich kelishi o‘rniga tushum kelishigi qo‘srimchasi ishlatilgan hollar ham uchraydi.

Mushukni o ‘lgani —sichsonga to ‘y.

Yuvosh otni tepkisi qattiq bo ‘lar.

Allegorik vosita qatnashgan maqollarning kesimi ko‘proq fe’lning -ar shaklida qo‘llaniladi. Bunday misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin.

Yomon buzoq yopig ‘in yer.

It hurar karvon o ‘tar.

It irrillashni onasidan o ‘rganar.

Har qush o ‘z uyasiga qarab uchar.

Kapalak gulini sog ‘inar, bulbul-kuyini.

Ola toeuts somon sochar, o ‘z aybini o ‘zi ochar.

So‘zlashuv uslubida umumiste‘moldagi adabiy-neytral so‘zlarni talaffuz qilishda birmuncha erkinlik sezilib turadi. So‘zlashuv uslubiga mansub so‘zlar, ko‘pincha, amaldagi adabiy-normativ shakllardan farqlanuvchi yoki unga qarama-qarshi keluvchi fonetik belgilarga ega. Xalq og‘zaki ijodida , umuman, so‘zlashuv uslubida allegorik ma’noda qo‘llanuvchi lisoniy vositalar fonetik jihatdan ayrim o‘zgarishlarga uchrab talaffuz qilinadi. Masalan:

sichqon-chichqon

eshak- eshek

buzoq-bo ‘zek

laylek-laylek

tovuq-to ‘viq kabi.

Bunday misollarni so‘zlashuv uslubidan ko‘plab keltirishimiz mumkin.

2.2 Badiiy uslubda qo‘llanuvchi allegorik vositalar

Badiiy nutq kommunikativ va estetik funksiyani bajaradi. Badiiy uslubning qo‘llanish doirasi juda keng bo‘lib, mavzu va uslubiy tomondan chegaralanmagan. Bunda barcha uslub imkoniyatlaridan foydalaniladi, shu bilan birga, adabiy til me’yorlaridan chekinilishi mumkin. Boshqa uslublar muayyan bir doiraga mansubligi bilan badiiy uslubdan farqlanadi. Badiiy uslub inson amaliy faoliyati va hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi, umumga taalluqliligi bilan ajralib turadi. Agar nutqning boshqa funksional uslublari faqat u yoki bu hodisaning mazmunini xabar qilish uchun xizmat qilsa, badiiy nutq esa bundan mustasno tarzda, o‘quvchi yoki tinglovchiga estetik va emotsiyal ta’sir ko‘rsatishni ham maqsad qilib qo‘yadi. Demak, estetik ta’sir etish vazifasi badiiy nutqning o‘ziga xos xususiyatidir. Obrazlilik - umuman san’atning , shu jumladan, adabiyotning ham o‘ziga xos xususiyatidir. Badiiy adabiyotda so‘zlarni obrazli yaratish va hayotni tasvir yo‘li bilan tahlil etish vositasidir.

Albatta,yozuvchilarining shaxsiy uslublarida so‘zlarni obrazli ishlatishning turi va me’yori ham bir xil emas. Har bir ijodkorning voqelikni badiiy idrok etishi, tasvir vositalaridan foydalanish usuli poetik sintaksisi muayyan belgilari bilan boshqalarinikidan ajralib turadi.

Badiiy adabiyotda maqol va matallarning ishlatilishi yozuvchi anglatmoqchi bo‘lgan fikrni, ma’noni obrazli qilib ifodalash uchun xizmat qiladi. Yozuvchilar qahramonning ichki dunyosini ochish va uning nutqiy xarakteristikasini berishda badiiy vosita sifatida maqol, matal, hikmatli so‘zlardan o‘rinli va ijodiy foydalanadilar. Mumtoz adabiyotimiz vakillaridan Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur va boshqa ijodkorlar o‘z asarlarini xalqning chuqur va dono fikrini o‘z ichiga olgan maqollar va hikmatli so‘zlar bilan bezaganlar. Ular asarlarning

xalqchilligini ta'minlagan.

XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida yashagan o'zbek masalchisi Muhammadsharif Gulxaniy o'z masallarining hajviy kuchini oshirish, xalq hayoti bilan bog'lash va badiiy jihatdan yanada puxtalash maqsadida xalq maqollaridan «Zarbulmasal»ning ta'sir kuchini oshirish va uni kitobxonlarga manzur qilishda o'zbek xalq maqollarining xizmati kattadir. «Zarbulmasal» boshidan oxirigacha allegorik ma'noga asoslangandir.

XX asr adaabiyotini ko'zdan kechirar ekanmiz, jadid adabiyoti namoyondalaridan biri bo'lgan Abdulla Avloniyning bir qancha masallar yaratganining guvohi bo'lamiz. Uning «Tulki ila Qarg'a» va yana bir qancha ibratli masallari allegorik ma'no asosiga qurilgandir.

Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» va «Mehrobdan chayon» romanlarida ham allegorik vositalardan unimli foydalilanildi. Masalan, o'zbek romanchiligining beba ho durdonasi hisoblangan «O'tgan kunlar» romanida: «Otabek maktubni tugatib, tushunmay o'tgan jumlalarni qayta ko'zdan kechirar ekan, Azizbek voqeasi ustiga kelganga ixtiyorsiz «tulki», deb yubordi.»(b-31). Bu misolda Azizbekning ayyor, o'z manfaati yo'lida hech nimadan qolmaydigan shaxs ekanligi allegorik vosita orqali ochib beriladi. Yoki Otabekning quyidagi so'zlari «Biz bu daqiqada, sizning fikringizcha, go'yo bir ig'vegar, go'yo bir isyonchi bo'lib tanilib turibmiz! -dedi bek,- Chindan ham shundog' kishilarmizmi, yo'qmi, buni albatta sizning tekshirishlaringiz, haqiqatlaringiz ko'rsatar. Men sizning qilichingiz ostida o'limdan qo'rqib yoki sizga xushomad uchun so'zlamay hukumat kishilarimiz orasida tushunadigan bir odam bo'lg'anlig'ingiz vajidan otamning ham o'zimning ham qanday fikr va maslak kishisi ekanligimizni aytib o'tmoqchi bo'laman: biz na qipchoqlarga tarafdar bir kishi va na shaharlik

og‘aynilarga! Bu ikki tomon bizning nazarimizda, bir- birisidan mumtoz, idora ishida biri- biridan ortiqroq xalqlar emasdir. Shunga binoan Turkiston xalqlarining istiqbollarini bu ikki firqaning bittasiga havola qilish baayni (qo‘yni) bo‘riga topshirish qabilidan bo‘ladi.» (b-61-62).

Yuqoridagi fikrlardan allegorik vosita bo‘lgan qo‘y - xalq, bo‘ri esa Azizbek boshliq hukumat ekanligi ma’lum bo‘ladi. Allegorik vositalar qahramonlarning xarakter-xususiyatlarini, tashqi ko‘rinishini yorqin ranglarda tasvirlash xususiyatlariga egadir. «Oradan o‘n besh kun o‘tar-o‘tmas Marg‘ilondan Otabek keldi. O‘zbek oyim uch oylab ko‘rmagan o‘glini quchog‘iga olib ko‘rismak o‘rniga undan yuzini o‘girib, sen kimsan, keldingmi, deb so‘ramadi, va salomiga alik olmadi, go‘yo uxlamoqchi bo‘lgan tovuqdek hurpayib oldi»(b-107).

Ko‘rinadiki, O‘zbek oyimning ichki ziddiyati, norozilik kayfiyati allegorik vosita orqali oydinlashgan. Bu kayfiyat Kumushbibi maktubida ham o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi: «Begin garchi achchiqlansangiz ham aytishga majburman: sizda vijdon, vafo, insof, rahm, va’da, yaxshilikni bilish, boringki, odamgarchilikdan hech gap yo‘q emish. Bil’aks siz: hiylakor bir tulki, og‘zi qon bir bo‘ri, rahmsiz bir jallod, uyatsiz bir yigitsiz!» (b-112).

Bu misolda allegorik vosita *og‘zi qon bir bo‘ri ifodalanib*, u nutqiy gradatsiya natijasi sanaladi. Kumushbibining betoqatligi, qattiq achchiqlanganligi bois, hech bir yaxshilikdan nishona yo‘qligiga ishora qiladi va Otabekni bo‘riga qiyoslaydi.

Yozuvchi o‘zining keyingi «Mehrobdan chayon» romanining nomlashidanoq allegoriyaga murojaat etadi. Mehrobdagi, eng baland va aziz joyda paydo bo‘lgan chayonlarning kimligi asar davomida ayon bo‘laveradi. Romanda qahramonlarning holat o‘zgarishlarini allegorik vositalar tasvirlab beradi. Masalan, Anvar xon nomidan kelgan mudhish sovuq xabarni eshitganda:

«Bu zaharli o‘z bilan ilon kabi to‘lg‘onib olsa ham butun kuchini sarf qilib sir bermaslikka tirishdi». (b-458). Anvarning qiynalishi majoziy ma’noda ilonning to‘lg‘onishiga o‘xshatiladi.

Yoki yana bir misolda «Xo‘sh, endi bizning foji’amiz sababiga kelaylik: bu hodisa to‘gridan-to‘gri xonning o‘zidan kelgan gap emas. Xon hazmi har bir iflosliqni ham ko‘taradirgan katta bir hayvon. Uning tevaragida mayda hasharotlar ko‘b, bular ham o‘zlariga yarasha hayvonliq istaydilar. Biroq qo‘l qisqa, shuning Bilan birga yotib qolishqa ko‘ngil tinchimaydir. Shundan keyin xon - katta hayvonni qitiqlab ishka soladirlar...»(b-460).

Xudoyorxon va Anvar diologida qo‘llangan allegorik vositalar raqiblarning keskin psixologik holatlarini ochib beradi: «...Sening qilg‘on ishing pusulmonchilikda bormi, it uvli?!»

Asarda allegorik vositalar ma’lum bir ijtimoiy tabaqa haqida ham ma’lumot beradi:

«-Chumchuqdek chirqillashdinglar-da, tojiklar!-dedi Qobil. – Ishsiz qolgan bo‘lsalaring, Toshkandga ketamiz.

-Ana-ana, yana topdi govni!-dedi Rahim,-valdir-valdir qilasan, Qobelboy, akun.Toshkend borish uchun pul qani?»

Bu misolda chumchuq allegorik vositasi asardagi kambag‘al xalq toifasini, ya’ni kichik risqini atrofni kezib topadigan, zo‘rg‘a kunini ko‘radigan kishilar tasvirlamoqda.

Mashhur o‘zbek yozuvchisi, hikoyachilikda yuksak namunalar yaratgan adib Abdulla Qahhor «O‘g‘ri» hikoyasida «Otning o‘limi, itning bayrami» maqolini epigraf qilib oladi. Bu maqol orqali hikoyaning butun bir ma’nosini, mohiyatini va adib aytmoqchi bo‘lgan fikrini tushunib olish mumkin. Bu epigrafdagi ot, it so‘zları allegorik ma’no ifodalayotgan lisoniy vositadir.

Hikoya bosh qahramoni Qobil boboga o‘xshagan kambag‘al zahmatkash,sodda va mehnatkash kishilar qancha qoqilsa, mingboshi, paxtafurushga o‘xshagan kimsalar ularni yana qaqqhatish evaziga ko‘proq foyda o lishni o‘ylaydilar. Abdulla Qahhor bu maqol orqali ana shundaylarni nazarda tutadi va keskin tanqid ostiga oladi.

Yozuvchi Odil Yoqubovning asarlarida ham allegorik ma’noda qo‘llangan lisoniy vositalarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. «Larza» qissasida «*Ammo toy ming chopganda ham ot bo‘la olmas*» deganlaridek, muovin qancha intilganda ham raisga yetolmasdi». Ushbu misolda toy, ot so‘zлari allegorik ma’noda qo‘llangan lisoniy vosita hisoblanib, toy muovinga, ot raisga nisbatan ishlatalgan.

«*Ammo o‘zi ham nozik joydan ushlaydigan, bir o‘q bilan ikki quyonni uradigan payt keldi.*» (b-27).

Bu misolda esa asr qahramonlaridan biri Latif o‘z xiylalari bilan 2 quyon - Mutual va Muborakni urmoqchi, ya’ni mansablaridan tushurmoqchi bo‘ladi.

Quyon allegorik vosita.

«Diyonat»romanida:

Nimani bilasan?- dedi Otaqo‘zi boshini buquday egib.-Lapashang! Qo‘lingdagи qushni birovga oldirib qo‘ymadingmi, ishqilib?(47bet)

Bu keltirilgan misoldagi qush so‘zi allegorik ma’noda qo‘llanilayotgan lisoniy vositadir. Otaqo‘zi qush deganda, o‘g‘li Haydarning sevgilisi Latofatni nazarda tutyapti. Yana bir misol: «*Hamon otdan tushsa ham egardan tushmaydi, hamon «tayoq -to‘g‘ri, men -to‘g‘ri» qabilida ish tutadi*». «Otdan tushsa ham, egardan tushmaslik» Normurod Shomurodovga nisbatan ishltilgan. Ot so‘zi bu misolda allegoriyadir.

«*Tepakal najot so‘rab sheriklariga qaradi.*

- *Meni kechirasiz-u, ammo lekin o‘ziyam... nomimiz o‘qituvchi-yu, qiladigan ishimiz - ketmon! Ertა-indin, o‘qish boshlandi deguncha , dalaga haydashadi!*

- *Yomon ho‘kizga bo‘yinturuq bahona!*

-Ha, albatta , jiyaningiz Rais bo 'lgandan keyin shunday deysiz- da!"

bu parchadagi ho'kiz allegorik ma'noda qo'llanilayotgan lisoniy vositadir.Ushbu parchada allegorik vosita orqali har bir ishda bahona qidiraveradigan, o'z aybini tan olmaydigan, sababini boshqadan ko'radigan. Kimsalarga karata aytilgan.

O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi" romanida: "Hujumga o'tishgani, nemisga sichqonning ini ming tanga bo'lib qolganligi, o'zi xizmat qilayotgan joyga Jukov degan katta komandir kelganini yozibdi."(144-6).

Bu misolda "sichqon" allegoriyadir. Ularni besaramjon bo'lib qolganligi nazarda tutilgan.

Abdulla Qahhor "Qo'shchinor chiroqlari" asarida:

"Tangriqulxo 'ja ilonning yog 'ini yalagan odam edi-da".

Asardan keltirilgan bu misolda Tangriqulxo'janing hiylagarligiga kinoya qilingan.

Demak, allegorik ma'noda qo'llanuvchi lisoniy vosita ishtirok maqollarning badiiy asarlarda ishlatilishi qahramonlar nutqining kinoyaviyligini oshirish bilan birga, asar tili jozibadorligini, ta'sirchanligini ham ta'minlaydi.

Nutq uslublarida qo'llanilgan lisoniy vositalardan anglashilgan munosabatni ikkiga bo'lib olishimiz mumkin:

❖ ijobiy munosabat;

❖ salbiy munosabat.

Qarga bo'lib ming yil yashagandan

Sher bo'lib bir yil yashagan afzal maqolida qarg'a va sher allegorik obrazlardir. Qarg'a va sher orqali shaxsga ishora qilinyapti. Qarg'a obrazidan salbiy munosabat, sher obrazidan ijobiy munosabat anglashilyapti. Qarg'a va sher bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan. Yomon inson bo'lib, ko'p yashagandan, yaxshi, mard, jasur, bir so'zli bo'lib, oz yashagan afzaldir, mazmuni anglashilgan. Allegorik ma'nodagi maqollar, matallar zamiridan tushuniladigan matn ortidagi yashirin mazmun ko'proq salbiy munosabat ifodalashga xizmat qilib, ko'chma ma'noda tushuniladi. Allegorik ma'nodagi lisoniy vositalarning ijobiy yoki salbiy

munosabatni ifodalanishini yana quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Hayvonlar orqali ifodalanishi;
2. Parrandalar orqali;
3. Boshqa narsa-predmetlar orqali.

Har doim ham haqiqatni ochiq-oydin, oshkora ifodalash, yomonlik va razolatga qarshi kurash tazyiqqa uchragan. Ijod ahli qalam bilan, majoziy allegorik vositalar orqali kurashgan, o‘z fikrini yashirin tag ma’no orqali namoyon qilgan. Fikrni biron bir nutq birligi yordamida ko‘chma ma’noda, yashirin ifodalash «tagmatn» yoki «tagma’no» tushunchalari bilan bog‘liq xalq maqollari va matallari, masallaridaadolatsizlikka, insonlardagi yomon illatlarni qoralashga qaratilgan anna shunday tagma’no yoki tagmatn yashiringan bo‘lgani uchun ham ko‘proq allegorik ma’no ifodalangan lisoniy vositalar orqali salbiy munosabat ifodalanadi. Odatda, masal va ertaklarda tulki aldoqchi, ayyor kishilarga, bo‘ri ochko‘zlarga, chayon zaharli, ilon makkor va tili zahar, to‘ti gapdon, bulbul g‘azalxon va ashulachi odamlarga nisbatan kinoya qilinadi. Bular an’anaviy allegorik ma’no ifodalovchi obrazlar hisoblanadi. Avvalo, hayvonlar orqali allegorik ma’noda qo‘llanilgan lisoniy vositalarning ijobiy yoki salbiy munosabat anglatishini ko‘rib o‘tamiz.

Ma’lumki, azal-azaldan arslon, sher mardlik, jasurlik ramzi sifatida ifodalanadi. Allegorik ma’no ifodalangan lisoniy vositalar ishtirok etgan maqol, matal va masallarda arslon va sher obrazlari ijobiy munosabat anglatish uchun ishlataladi.

Masalan, *arslon bolasi arslon bo‘ladi*.

Bu maqoldagi arslon allegorik ifodalash uchun xizmat qilgan. Maqol orqali mardning bolasi mard bo‘ladi, degan ma’no anglashilgan.

Arslonning o‘ligi-sichsonning tirigi.

Bu maqolda ham arslon, sichqon allegorik obraz bo‘lib, shaxs(inson)ga nisbatan aytilgan. Arslondek mard, jasur insonlarning o‘ligi, sichqondek mayda, pastkash, g‘alamis insonlarning tirigi bilan teng qo‘yilyapti.

Zero, Insonlar bor: tirigida o 'likdir,

Insonlar bor: o 'ligida tirikdir.

Maqol va matallarda ishlataladigan allegorik ma’no ifodalovchi ot obrazi ham ko‘proq ijobiy munosabat ifodalash uchun xizmat qiladi.

Ot bosganini toy bosar.

Bu maqoldagi ot keksa kishilarga. Toy yoshlarga nisbatan ishlataligan. Keksalar qilolmagan, qilishga ulgura olmagan ishlarni yoshlar davom ettiradi, yakuniga yetkazadi.

Toychani “toy”deb xo ‘rlama, erta-indin ot bo ‘lar.

Toy va ot bu maqolda katta kishilarga nisbatan ishlataligan. Ko‘p yoshlarni “hali yoshlik qilasan”, “seni aqling yetmaydi”, “kattalarning ishiga aralashma” deb o‘z fikrini bayon qilishdan mahrum etadilar, ular bilan ham ba’zi masallarda maslahatlashmaydilar. Ular ham vaqt kelib ulg‘ayishadi. Xalqimizda bir naql bor: “Bir kichikning gapiga kir, bir kattaning”.

Azal-azaldan parrandalar, turli qushlar nomi ham allegorik ma’no ifodalash uchun xizmat qilib kelmoqda. Ularning nomi orqali ham ijobiy va salbiy munosabat anglashiladi. Bunda qushlarning fe'l-atvori, hajmi, ba’zan yemagi e’tiborga olinadi. Biz bu xususiyatlarni parrandalar va qushlar nomi orqali allegorik ma’no ifodalagan maqollarni sharhlash, tahlil qilish orqali ko‘rishimiz mumkin.

Qush uyasida ko ‘rganini qiladi.

Bu maqolda qush allegorik ma’no tashuvchi lisoniy vosita hisoblanadi. Inson umri davomida oilasida qanday sharoitda yashagan bo‘lsa, shuni qilishga harakat qiladi. Bu uning mehnatida, harakatida, odob-ahloqida ko‘rinadi. U ota-onasidan, aka-opasidan o‘rnak oladi. Qush—allegorik obrazi orqali ayni shu ma’no ifodalanyapti.

Umumiy xulosa

Allegorik ma'noda qo'llaniluvchi lisoniy vositalar, asosan, ot so'z turkumi doirasidagina hosil bo'ladi, bu uslubiy vositadan ko'proq jonli nutq ko'rinishlarida, xalq og'zaki ijodi materiallarida foydalaniladi. Natijada nutqning ta'sirchan va effektli bo'lishiga erishiladi.

Tadqiqotimiz mavzusi bo'lgan o'zbek tilidagi allegorik vositalar ham aslida narsa-predmet, voqeа-hodisalarni qayta nomlash, nominativ funksiya natiasi bo'lib, bir predmet belgisi boshqa predmetga shartli ravishda ko'chiriladi, bunda albatta so'zlovchining salbiy-ijobiy uslubiy bahosi, jamiyatda tutgan o'rni, ijtimoiy mavqeyi, yoshi, nutqiy vaziyat asosiy o'rin tutadi.

Har doim ham haqiqatni ochiq-oydin, oshkora ifodalash, yomonlik va razolatga qarshi kurash tazyiqqa uchragan. Ijod ahli qalam bilan, majoziy allegorik vositalar orqali kurashgan, o'z fikrini yashirin tag ma'no orqali namoyon qilgan.

Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodalilagini, ekspressivligini kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatilishi trop deyiladi.³⁵ Allegoriya ham tropning ko'rinishi hisoblanadi.

Allegoriyada uslubiy bahoning ustunligi, o'ta ta'sirchanligi, obraz yaratishda nihoyatda qulayligi bilan til birliklaridan farqlanadi. Allegoriyaning paydo bo'lish sabablari, unga bo'lgan ehtiyoj, allegoriyaga yondosh bo'lgan hodisalar- metafora, kinoya, metanimiyalardan farqi, uning uslubiy, badiiy-estetik vazifalari to'liq o'rganilmagan.

Yuqorida allegorik ma'noda qo'llaniluvchi lisoniy vositalarning so'zlashuv

³⁵ Шомаксудов А., Расулов И., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1983 йил. - Б. 236.

nutq uslubi bilan badiiy nutq uslubi, ommabop nutq uslubida ham qo‘llanilishini ko‘rib o‘tdik.

Xalq og‘zaki ijodida , umuman, so‘zlashuv uslubida allegorik ma’noda qo‘llanuvchi lisoniy vositalar fonetik jihatdan ayrim o‘zgarishlarga uchrab talaffuz qilinadi. Masalan:

sichqon-chichqon

eshak- eshek

buzoq-bo ‘zek

Bu uslublarda allegorik vositalar nutqning ta’sirchanligini, jozibadorlini, shu bilan birga siyosiy o‘tkirligini oshiradi. Biz misollar orqali shunga amin bo‘ldikki, nutq jarayonida allegorik vositalardan foydalanish tinglovchiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiy uslub hamda rasmiy uslubda esa allegorik ma’no ifodalovchi lisoniy vositalar deyarli ishlatilmaydi. Chunki bu uslublar effektni, his-tuyg‘uni, ortiqcha so‘z va iboralarni talab qilmaydi. Masalan, rasmiy uslub iqtitsodiy, yuridik va diplomatik munosabatlarda, davlat idoralari, sudlar, savdoga doir o‘zaro muamolalarda aloqa qilish uchun ishlatiladi. Bu uslubda allegoriyadan deyarli foydalanilmaydi.

Allegorik ma’no ifodalovchi lisoniy vositalarning o‘rganilish jarayoni endi boshlandi. Bu jarayonning samarali davom ettirish tilshunoslardan chuqr bilim va mehnatni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. Б-136.
2. Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida, - T.: O‘zbekiston, 2011,78-bet.
3. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini bиргаликда barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016, 27-bet
4. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. Илмий-танқидий матн. Тайёрловчи Шарофиддин Эшонхўжаев. Т., 1965. 61-б.
5. Адашбоев Т. Баланд тоғлар. Т., 2002. 12-
6. А.Мамажонов, А.Тилланазаров. Аллегорик маънода қўлланувчи лексик воситалар. Олий ўкув юртларида туркий тилларни ўрганиш ва ўқитиш муаммолари. Фарғона-Ўш 2004.
7. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т.: “Ўзбекистон”, 2002. 326-б.
8. Бертельс Е.Э. Суфизм ва суфийская литература. М., 1965. С.283.
9. БУ ҲАҚДА: СОРОКИН Ю.А., МАРКОВИНА и.ю., КРЮКОВ а.н. ЭТНОПСИХОЛИНГВИСТИКА. - МОСКВА: НАУКА, 1988. -288 Б.
10. Жумаева С. Эртакларда рақиб персонажлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2012, 1-сон. 54-б.
11. Жумаев Р. “Лисон ут-тайр” даги бир мажозий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. 2011, №4. 25-б.
12. Жалолов Г. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. Т., 1976. 22-б.
13. Жўраева Г. Мажозий образ ва поэтик мазмун // Ўзбек тили ва адабиёти. 2009, №1. 85-б.
14. Зариф X. Фольклор ва археология материалларини қиёсий ўрганиш масалаларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1958, 1-сон. 29-б.
15. Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол.фанл.докт....дисс.автореф. Тошкент, 1999

16. Имомов К. Ҳайвонлар ҳақидаги эртаклар. Ўзбек фолклори очерклари. 3 жилдлик. 2-жилд. Т., 1989. 76-84-б.
17. НЕЙМАТОВ Х., РАСУЛОВ Р. УЗБЕК СИСТЕМ ЛЕКСИКОЛОГИЯ АСОСЛАРИ. ТОШКЕНТ.: УКИТУВЧИ. 1995. Б-60
18. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. Таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдлазиз Мансур. Т., 2007.44-б.
19. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Т., Фан,1977. 13-б
20. ҚуроновД. <http://www.quronov.narod.ru/>
21. Қуронов Д. Ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. Т.: “Академнашр”, 2010. 25-б.
22. Ўзвек тилининг изоҳли луғати.-Т. Ўзбекистон миллий енциклопедияси. 2007. 4-жилд 69-бет.
23. Қуронов Д. Адабиётшунослик луғати. Т., 2010. 161-б.
24. Шомақсудов Ш.,Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Т., 1990. 173-б.
25. Шомақсудов А. ва б. Ўзбек тили стилистикаси. Т., “Ўқитувчи”, 1983. 236-247-б.
- 26.Шомақсудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси.- Тошкент:Ўқитувчи, 1983, 9- бет.
- 27.Шукуров Н ва б. Адабиётшуносликка кириш. Т.: “Ўқитувчи”, 1984. 233-бет